

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

Valiyeva Odinaxonning

*“Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning diqqatini rivojlantirishda olib  
boriladigan korreksion ishlar”*

**Mutaxassislik: 5111900 – Defektologiya**

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

**Bitiruv malakaviy ishi**

2019 y «\_\_\_\_» iyun

Ilmiy rahbar:

\_\_\_\_\_ M.Mahmudova

Qo'qon-2019 yil

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>I BOB Muammoni pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarda yoritilishi</b>	
1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning diqqatini rivojlantirishda olib boriladigan korreksion ishlarni o‘rganishning ilmiy - nazariy asoslari.....	9
2. Nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar diqqatining rivojlanish xususiyatlari.....	21
I bob bo‘yicha xulosa.....	27
<b>II BOB. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ruxiy jarayonlarini (diqqatini) eksperimental tadqiq etish</b>	
1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik tekshirish metodikasi.....	28
2. Nutqi rivojlanmagan bolalarni psixologik tekshirish natijalari.....	32
II bob bo‘yicha xulosa.....	36
<b>III BOB. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning diqqatini rivojlantirishda olib boriladigan korreksion ishlar</b>	
1. Nutqi rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish tamoyillari.....	37
2. Nutqi rivojlanmagan bolalar diqqatini rivojlantirish yo’llari.....	42
III bob bo‘yicha xulosa.....	53
Umumiy xulosa.....	54
Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	56

## Kirish

**Mavzuning dolzarbliği.** Farzandlarimizni ma’naviy va jismoniy jihatdan yetuk hamda barkamol bo’lib ulg’ayishida ekologik tarbiyaning o’ziga hos o’rni bor. Zero, ta’lim jarayoni o’zaro uzviy bog’langan ma’naviy, iqtisodiy, psixologik, texnologik taraqqiyot ta’siriga bo’ysunadi. Bu jarayon dunyoqarashi keng, iqtidorli, erkin va sog’lom fikrlovchi shaxslarni voyaga yetkazishning bosh omilidir. Aynan sog’lom bola vatan istiqboli uchun jonkuyar bo’ladi. Tug’ilib o’sayotgan zaminining tabiatini, ota – bobolarining azaliy merosi va madaniyatini ko’z qarochig’idek asrab – avaylashga intiladi. Maktabgacha yoshdagi bola ong – shuurida ushbu qadriyat kurtaklarini shakllantirish, rivojlantirish, egallagan malakasini mustahkamlash, bilimini boyitish tarbichilardan katta mahorat talab etadi. Ekologik ta’limning ilk vazifalarini bajarishga bolalar faoliyatining turli ko’rinishlarini keng qo’llash orqali erishish mumkin. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar jalb etiladigan faoliyatlar uyg’unlashtirilgan holda tashkil etilsa, maktab ta’limiga puxta zamin tayyorlanadi. Muassasada tashkil etiladigan tasviriy fqaoliyat, nutq o’stirish, matematika, badiiy adabiyot bo’yicha o’yin – mashg’ulot, sayr va kuzatuvlar, tevarak – atrof bilan tanishtirish, mehnat topshiriqlari bajarish ekologik ta’lim vazifalarini uyg’unlashtirish bolalar bilim tushunchalarining tizimli bo’lishini ta’minlaydi. Bolalar bilan olib borilayotgan ushbu ta’lim – tarbiya ularda quyidagi malakalarning shakllanishiga yordam beradi: tinglash, jismonan rivojlanish, mustaqil harakat qilish, dadil fikrlash, badiiy – estetik o’stirish va mas’ullikni oshiradi.

Ta’limda butunlay yangilanish, yangi jarayonga tom ma’noda o’tish va unga moslashish davrini boshdan kechirmoqdamiz. Yangilangan ta’limda tarbiyalanuvchining yuragidagi cho’g’ni alangalatish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimga yetaklash uchun zamonaviy mashg’ulotlar zarur. Darhaqiqat, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2016 – yil 29 – dekabrdgi “2017 – 2021 – yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to’g’risida”gi qarori bunga yaqqol misol bo’ladi. Qarorning maqsadi maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish,

moddiy – texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog’ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim - tarbiya jarayoniga zamonaviy dastur texnologiyalarni tatbiq etish, ularni har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanish uchun shart – sharoitlar yaratishdan iborat. Dasturning asosiy vazifalari sifatida ilg’or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, bolalarni intellektual, axloiy, estetik va rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan. Har bir bolakay dunyoga kelishi bilanoq unda atrof – olamni idrok qilish jarayoni boshlanadi, ya’ni u ko’radi, eshitadi, asta – sekin issiq va sovuqni his qila boshlaydi.

Milliy istiklol sharofati bilan jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy yangilanishlar, birinchi navbatda yosh avlod ongiga ma’naviy-axlokiy an’analar, insonparvarlik va demokratiya kadriyatlarini singdirishga xizmat kilmokda. Davlatimiz raxbari ta’kidlaganidek, ozod, xar jixatdan barkamol, yuksak mas’uliyat va burch hissiga ega "...o‘z xak-xukuklarini taniydigan, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqeа-xodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un xolda ko‘radigan shaxs, fuqarolarni voyaga yetkazish va hayotga yullahozirgi muxim vazifalardandir".

Mustakillik yillari mobaynida jamiyatda shunday ijtimoiy-iktisodiy va siyosiy muxit, qadriyatlar yuzaga keldiki, ular odamlarning, ayniqsa, yosh avlodning o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi nazorat qilish darajasiga va bu xususiyatlarni rivojlantirishga yunaltirilgan ta’limga yangicha talablarni qo‘ymoqda.

Yurtboshimiz zamonaviy ta’lim tizimi yangicha fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashga yunaltirilgan bo‘lishi lozimligini uqtirib, "...ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. Bu ta’lim orqali biz o‘zining kadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz"- deganlar.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni o‘z ijodiy va aqliy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yurtimizda iqtisodiy jihatdan yoshlarimizni moddiy rag‘batlantirish va ma’naviy qo‘llab quvvatlashlarining samarali tizimlari ishlab chiqildi. Chunki, yurtimizni ertangi kuni, taraqqiyoti uchun ma’suliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, yetuk mutaxassis yoshlar Vatanimiz rivoji, yo‘lidagi ezgu say –harakatlarini amalga oshiradigan qudratli kuchdir.

Demak, insonning ma’naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib mustahkamlana boradi, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Zero, iroda shaxsning ongli harakatlarida, o‘zini tuta bilishida ifodalanadigan, ayniksa, maqsadga erishish yulida uchraydigan jismoniy va ruxiy kiyinchiliklarni yengib chikishida namoyon bo‘ladigan ixtiyoriy faolligidir.

Ta’lim tizimini tubdan isloq qilish, yosh avlodga hozirgi zamon fan va texnika yangiliklari haqida chuqur va xar tomonlma bilim berish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ”da mutaxasislar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat extiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalaring zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan xolda qayta qurush nazarda tutilgan. O‘sib kelayotgan yosh avlodning xayotda o‘z o‘rnini topishi, komil inson bo‘lib yetishishda uning maktab dasturlarini o‘zlashtirishda nutqning o‘rni beqiyosdir.

Nutqning yaxshi rivojlanmaganligi barcha psixik rivojlanishining ortda kolishiga olib keladi. Sharkda psixologik qarashlarning paydo bo‘lishida buyuk sharq mutaffakirlarining roli juda katta bo‘lgan. Ular orasida Al Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Al Farobi<sup>1</sup>, Abu Rayxon Beruniy kabi olimlar inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlar va qarashlarini meros qilib qoldirganlar<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Farobiy. Fozil shahar odamlari. –T.: Meros, 1990.

<sup>2</sup> Abu Ali ibn Sino. Tibbiy o’gitalar –T.: 1991.

Abu Rayxon Beruniyning “Kadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklari asari”da maqsad gapni cho‘zish emas, o‘quvchini zeriktirmaslik, chunki doim bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi degan fikrlari berilgan.

Bola xayotining birinchi yilida qandaydir vaqt ichida u yoki bu predmet bilan shug‘ullanishi mumkin, biroq bunda uning diqqati xali turg‘un bo‘lmaydi. Beixtiyor diqqat shakillanishining boshlang‘ich davri shu bilan tavsiflanadiki bola rang-barang narsalarni ko‘rib, baland tovushlarni eshitib, vaqt o‘tishi bilan yanada sust, sekin tanish bo‘lgan qo‘zg‘atuvchilariga etibor berishni boshlaydi.

Diqqat muammolari tadqiqotchilar tomonidan turli aspektlarda o‘rganilgan. D.Ya.Galperin, I.B.Itelson, S.L.Rubinshteyn diqqatni psixik funksiya sifatida va uning boshqa ruxiy jarayonlar qatoridagi o‘rmini; L.S.Vgotskiy, P.Ya.Galperin, I.F.Dobrinin, A.N.Leontev, S.L.Kablnitskaya, B.M.Xomskayalar diqqatning psixologik va psixofizik mexanizmlarini ilmiy jixatdan o‘rganganlar.

O‘zbekiston Respublikasida nutq kamchiliklarini kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish usullari yuzasidan L.R. Mo‘minova (1991 y) mактабгача tarbiya yoshidagi bolalarda nutqning to‘liq rivojlanmaganligini bartaraf etishning korreksion-pedagogik asoslarini, M.Yu. Ayupova (1992 y) mактабгача tarbiya yoshidagi o‘zbek bolalarida fonetik-fonematisk kamchiliklarini bartaraf etish yo‘llarini X.M. Po‘latova (1994 y) Nutqi rivojlanmagan mактабгача tarbiya yoshidagi bolalar nutq faoliyatini faollashtirishni, Ye.A. Babayeva (1991 y) Nutqining to‘liq rivojlanmasligini blingivizm ya’ni ikki tillilik asosida kelib chiqishini, N.X.Raxmankulova kichik mакtab yoshidagi duduqlanuvchi bolalarni tengdoshlari bilan axloqiy munosabatlarini shakllantirishni, Z.M.Axmedova (2009) umumta’lim maktablari o‘quvchilarida disgrafiyani bartaraf etishda logopedik ish tizimini o‘z tadqiqotlarida ilmiy jixatdan o‘rganganlar.

Lekin O‘zbekistonda nutq kamchiligidagi ega bo‘lgan bolalarning ruxiy rivojlanish xususiyatlari ilmiy jixatdan o‘rganilmaganligi, nutq kamchiligidagi ega

bo‘lgan bolalarning ruxiy rivojlanishi xaqida o‘zbek tilida manbalar yetarlicha emasligi mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Muammoning O‘zbekistonda ilmiy jihatdan o‘rganilmaganligidan kelib chiqqan holda, “*Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning diqqatini rivojlantirishda olib boriladigan korrektsion ishlar*” tadqiqot mavzusi sifatida tanlandi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarning diqqat xususiyatlarini o‘rganish, aniqlash va bolalar diqqatini rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

### **Tadqiqot vazifalari:**

- tegishli falsafiy, psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish;
- nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning diqqat xususiyatlarini aniqlash;
- tadqiqot natijalariga tayangan holda nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarni diqqat xususiyatlarini rivojlantirish texnologiyalari bo‘yicha ilmiy – amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot ob’ekti:** mактабгача yoshдаги nutq kamchilигига eга bo‘lgan bolalar ruxiyati.

**Tadqiqot predmeti:** nutq kamchilигига eга bo‘lgan bolalarning diqqatini rivojlantirish jarayoni.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni (1997), Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maxsus ta’lim konsepsiysi, Sh.Mirziyoyevning barkamol avlod tarbiyasiga oid asarlari va nutqlari, Sharq mutafakkirlarning yosh avlodni tarbiyalashga doir fikr va qarashlari, A.R.Luriya, Ye.N.Vinarskayaning markaziy asab tizimining darajaviy tuzilishi to‘g‘risidagi neyro-psixologik konsepsiya, L.S.Vgotskiy, N.I.Jinkin, A.R.Luriyaning nutq va tafakkur birligi to‘g‘risidagi psicho-lingvistik konsepsiysi, rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning maxsus tashkil etilgan ta’lim-tarbiyasi va korreksion-rivojlantiruvchi ish tizimining ahamiyati to‘g‘risidagi tadqiqotlar tashkil etadi.

### **Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:**

- tadqiqot mavzusi bo‘yicha pedagogik, psixologik, defektologik va metodik adabiyotlarni nazariy tahlil kilish;
- bolalarning psixologik jarayonlarini tekshirish;
- ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim muassasalari reja-hisobot hujjatlari va tarbiyalanuvchilarning tibbiy pedagogik hujjatlarini o‘rganish, tarbiyalanuvchilar, logopedlar, tarbiyachilar hamda ota-onalar bilan yakka suhbatlar o‘tkazish;
- pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil kilish;
- maktabgacha yoshdagi Nutqi rivojlanmagan bolalarda ta’kidlovchi tadqiqot o‘tkazish va ularni miqdor va son jihatdan tahlil etish.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi kirish, III bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## **I BOB Muammoni pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarda yoritilishi.**

### **1.1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarining diqqatini rivojlantirishda olib boriladigan korreksion ishlarni o‘rganishning ilmiy - nazariy asoslari.**

Hozirgi vaqtida defektologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri rivojlanishida kamchilikka ega bo‘lgan bolalarni har tomonlama psixologik-pedagogik o‘rganishdir. Ayniqsa, maktabgacha defektologiyada ushbu yo‘nalish juda dolzarb, chunki aynan shu yoshda birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni erta aniqlash va bartaraf etish korreksion ta’sir jarayonini faollashtirish imkonini beradi. (Lubovskogo I.V)

I.T.Vlasenko «Hozirgi kungacha ilmiy defektologiyada birlamchi nutq nuqsonlariga ega bolalar psixologiyasi kabi nazariy va amaliy jihatdan zarur bo‘lgan maxsus psixologiya sohasi mustaqil fan sifatida tashkil etilmagan. Nutq nuqsoniga ega bolalar psixologiyasi muammosiga taalluqli umumiyliz nazariy va eksperimental metodik savollari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu esa faqat ayrim zamonaviy tadqiqotlarning metodik darajasiga salbiy ta’sir etib qolmay, shuningdek, shu toifaga kiruvchi bolalarni maxsus ta’lim jarayonida kamchiliklar keltirib chiqaradi» degan fikr bildiradi<sup>3</sup>.

Ruhiy hodisalar ko‘rinishlari orasida diqqat alohida o‘rin tutadi: ko‘pgina psixologlarning ta’kidlashicha, diqqat mustaqil ruhiy jarayon hisoblanmaydi va shaxs sifatlariga taalluqli emas.

Diqqat har qanday faoliyatning zaruriy shartidir. Mana shu hol fransuz olimlaridan Kyuvyeni o‘z zamonasida is’tedodlilikni chidamli diqqat deb ta’riflashga undagan edi. Masalan, u Nyutonning iste’dodliligini diqqatning kuchi va barqarorligidadir, deb ko‘rsatadi. Nyutonning o‘zi, “siz butun dunyo tortishishi qonunini ochishga nima tufayli tuyassar bo‘ldingiz?”-deb berilgan savoliga

---

<sup>3</sup> Специальная психология. Под ред. В.И.Лубовского. – М.,

“Fikrim – zikrim doimo shu masalaga qaratilganligidan muyassar bo‘ldim”-deb javob bergen.

Diqqat ta’lim olishning ham zaruriy sharitidir. Bolalarning o‘quv materialini muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirishlari dastavval diqqatning mavjud bo‘lishiga bog‘liqdir.

K.D.Ushinskiyning fikricha: “Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshidigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o‘tib kiradi”.

I.P.Pavlov diqqatning bo‘linishi haqida shunday yozadi: “Biz, asosan, bir ish, bir fikr bilan band bo‘lganimizda, albatta, shu asosiy ishimizga aloqasi bo‘lgan miya yarim shari nuqtasi kuchli qo‘zg‘algan holda bo‘lganda, ayni zamonda biz juda yaxshi ko‘nikkan bir ishni bajara olishimiz, ya’ni miya yarim sharlarining tashqi tormozlanish mexanizmi asosida tormozlashgan qismlari bilan ishlay olishimiz oddiy bir narsa emasmi, axir”.

Ko‘pchilik rus psixologlari (N.F.Dobrinin, I.V.Starxov va boshqalar) diqqatning nazorat qiluvchi va boshqaruvchi faoliyatini tadqiq etganlar. Olimlarning ko‘pchiligi diqqatni umumiyligini qobiliyat tuzilishiga kiritmaydilar, balki shaxsiy maqsadlari va masalalari, faoliyat motivatsiyalari, faoliyatning umumiyligini shaxsiy ahamiyatiga bog‘liq qilib qo‘yadilar. Biroq Ya.D.Galperin boshqalardan farqli diqqatning faoliyat ustidan nazoratini shaxsiy psixologik tarkibini ajratib ko‘rsatadi. S.L.Kabilinskaya bilan xamkorlikdagi ishda u shunday yozadi: “Har qanday nazorat diqqat bo‘la olmaydi, lekin har qanday diqqat nazoratdir”.

Psixologlar tomonidan diqqatning jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha ko‘pgina tadqiqotlar o‘tkazilgan.

L.S.Vgotskiy oliy psixik jarayolarining bilvosita xarakteri haqidagi fikrlariga muvofiq nuqsonli bolalarning ixtiyoriy diqqatning zaifligi ularda tushunchalarining shakllanishiga to‘sinqinlik qiluvchi sabab deb ko‘rsatadi. L.S.Vgotskiy ixtiyoriy diqqatdagi kamchiliklar nutqning rivojlanmaganligi bilan bog‘laydi.

A.V.Luriya va Ye.D.Xomskayalarning fundamental tadqiqotlarida ham diqqatning neyrofiziologik asosini ko‘rib chiqqanlar.

E.D.Xomskaya diqqat buzilishi mexanizmlari yoritilgan tadqiqotlar olib borilagan adabiyotlar manbalarini to‘liq bayon qiladi. Ye.D.Xomskaya shuningdek, diqqatning bo‘linishi sabablari haqidagi, ayniqla, insonning ixtiyoriy aqliy faoliyatida qo‘llovchi savollarni ko‘rib, ular yetarlicha o‘rganilmagan degan fikrga keladi. Uning fikricha nutqqa bog‘liq ixtiyoriy diqqatining shakllanishidagi turli miya tuzilmalarining roli yetarlicha o‘rganilmagan.

I.L.Baskakova ham diqqat jarayonini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan. U bir turdag'i ishlarini bajarishdagi diqqatning turg‘unligini so‘ng huddi shu ishni ma’naviy chalkashlik asosida bajarishda diqqatning turg‘unligini o‘rgangan.

Diqqat xususiyatidagi kamchiliklar va ularni bartaraf qilish imkoniyatlariiga bir munka boshqacha yondashish Ya.D.Galperin tomonidan taklif qilingan. U diqqatning zaifligi sabablaridan biri asab jarayonlarini to‘liq emasligidan yuzaga kelishini imkor etmaydi. Shu bilan birga u diqqatni shakllanuvchi malaka sifatida ko‘rib chiqadi.

Ya.D.Galperin va uning hamkasbi S.L.Kabilinskayalar diqqatni malaka sifatida tushinishdan kelib chiqadilarki, bunda shakllanayotgan o‘zini nazorat qilish malakasi unga mos ravishda uni o‘zida aks ettiradi. Ular tomonidan aniqlangan materiallarga muvofiq bu malaka unga maxsus yaratilgan sharoitlarida shakllantirishi mumkin. Kursatilgan malaka tanqisiligi va o‘zini tuta bilishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Diqqatning psixik tasiri ma’lum, u sezgi kompleksini idrokka aylantirib, psixik jarayonlarining o‘tishni kuchaytiradi va tasavvurlarning diqqatda mustahkam saqlanishga yordam beradi.

Diqqatning ko‘p chalg‘ishi bolalar diqqatining xarakterli xususiyatidir. Chunki psixik hayot davomiy ravishda tashqaridan bo‘ladigan yangi qo‘zg‘aluvchilarga muxtoj bo‘lib turadi. Ammo obyektga bo‘lgan qiziqish qancha aniq va ravshan bo‘lsa, bolaning ixtiyorsiz diqqati shuncha barqaror bo‘ladi. Ixtiyorsiz diqqatning kelgusi taraqqiyoti qiziqishlari boyib borishga bog‘liqdir.

Umuman, olganda pedagog, tarbiyachilarga nuqsonli bolalarni o‘zlarining faoliyatlari turg‘unligini tekshirishga, o‘zining nutqini nazorat qilishga, yozilganni o‘qib chiqishga o‘rgatish vazifalari talab qilib qo‘yiladi.

Ko‘rib chiqilayotgan muammo nuqtai nazaridan Osipova A.A kuzatishlari qiziqish uyg‘otadi. Tadqiqot nuqsonli bolalar diqqatining shakllanishi tajribasiga bag‘ishlangan. Diqqatning rivojlanishi asosiga muallif tomonidan Ya.D.Galperinning aqliy faoliyatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini singdirilgan. Nuqsonli bolalarda eksperimental kuzatuv jarayonidan o‘qish va yozishda o‘zini nazorat qilish malakalari shakllanib borgan.

Olingen ma’lumotlardan Osipova A.A<sup>4</sup> xulosa qiladiki, nuqsonli bolalarni o‘qish va yozishdagi diqqatsizligi po‘stloq neyrodinamika buzilishi bilan bog‘liq emas. Diqqatlilika huddi o‘zini nazorat qilish faoliyati kabi maxsus o‘rgatish mumkin va lozim. Shubxasiz, buni davom ettirish to‘g‘ridir. Ko‘rsatilgan yo‘nalishdagi ish ko‘p tadqiqot ishlarini olib borishini talab qiladi.

F.Yu.Garkusha<sup>5</sup> o‘zining “Opt razvitiya proizvolnogo vnimaniya u detey s mtorinoy alaliey” kitobida yozishicha nutq nuqsonlariga ega bolalarda oliy psixik funksiyalarning shakllanishi, jumladan, ixtiyoriy diqqatining shakllanishi ko‘p hollarda nutq va taffakurning rivojlanishidan orqada qoladi. Nutq nuqsoniga ega bolalarda ixtiyoriy diqqat normal tengdoshlariga nisbatan qiyinchilik bilan shakllanadi deb yozadi.

Nutq nuqsoniga ega maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ko‘p xollarda o‘z diqqatlarini asosiy foaliyatga yoki predmetga jamlashga qiyinaladilar. F.Yu.Garkusha shuni alohida qayd qiladiki, kompensator rivojlanishida diqqat asosiy rol o‘ynaydi. Nutq nuqsoniga ega bolalar normal nutqiy rivojlanishiga ega tengdoshiga nisbatan predmetni his qilish va bilishga, mohiyatni tushunishiga ko‘proq vaqt sarflaydilar. Luriyaning fikriga ko‘ra, nutq nuqsoniga ega bolalar

---

<sup>4</sup> Осипова А.А., Малашинская Л.И. Диагностика и коррекция внимания. Программа для детей и педагогов. Практический рекомендации родителям и педагогам. - М.: ТС Сфера, 2003

<sup>5</sup> Гаркуша Ю.Ф., Система коррекционных занятий воспитателя в детском саду для детей с нарушениями речи. – М., 1992

uchun topshiriqlarini bajarishda turli ko‘rinishdagi kamchiliklar xos, masalan ko‘rvu diktantida nutq nuqsoniga ega bolalar predmet tarkibiy qisimlarining joylashuvida xatolarga yo‘l qo‘yadilar, ular predmet shakli va rangini almashtiradilar.

Qator mualliflarning ko‘rsatishicha, nutq nuqsoniga ega bolalarda diqqatning oliy shakllarini buzilishini biologik va ijtimoiy rivojlanishi orasidagi bog‘liqning buzilishidir. Bu bolalar bilan korreksion ishlarni muvaffaqiyatli bajarish uchun bola diqqatining fiziologik mexanizmlarini bilish talab etiladi.

A.R.Luriya<sup>6</sup> nutq nuqsoniga ega bolalar diqqatini o‘rganib chiqib, bu bolalarda ixtiyorsiz diqqat ixtiyoriy diqqatga nisbatan rivojlangan bo‘ladi deb ta’kidlaydi. Bu bolalar diqqatini shakllantirish shaxs xususiyatlarini rivojlanТИRIB borish bilan bog‘liq deb xisoblaydi. Nutq nuqsoniga ega bolalar diqqatining xolatini bir qator metodikalar yordamida o‘rganish mumkin.

Nutq nuqsoniga ega bolalar diqqat xususiyatlarini o‘rganib chiqib, diqqatni shunday tasniflaydi:

- nutq buzilishlariga ega bolalar diqqatining turg‘unligida kuzatiladigan kamchiliklar nutq, nutqiy boshqaruvchilik funksiyalarini buzilishlari yoki zaiflashuvi natijasida kelib chikadi.
- nutq nuqsoniga ega bolalar diqqatining hajmi, dunyoqarashining torligi, nutqning boshqaruvchilik funksiyasining zaiflashuvi oqibatida xajmi tor va miqdor jihatdan pasltigi bilan tavsiflanadi.
- nutq nuqsoniga ega bolalar diqqatining ko‘chuvchanligi, taqsimlanishi, avvalgi predmet obrazini idrok etish va xotirada saqlab turish, faollikning pastligi, turg‘un emasligi, miqdor va sifat jixatdan pastligi bilan tavsiyalanadi.

Bilish jarayonlarining barcha turlarini takomillashuvi bola nutqini rivojlanshiga tayanadi. So‘z bola tomonidan o‘zlashtirilayotgan sensor etalonlarini belgilaydi, tafakkur jarayoniga birlashib, tasavvur va tushunchalar yuzaga chiqarib, mantiqiy fikrlash imkoniyatini ta’minlaydi. Nutq tasavvurni yo‘naltiradi,

---

<sup>6</sup> Лурия А.Р. Основы нейропсихология. - М., 1997

diqqat va diqqat oldiga maqsad qo'yadi, ixtiyoriylik elementini kiritadi, eslab qolishga anglanganlik kasb etadi. Nutq yordamida bola insoniyat tomonidan yig'ilgan tajribalarni, xususan psixik faoliyat tajribalarini egallaydi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarni xulosalab, nutq nuqsoniga ega bolalar mnestik faoliyatida o'ziga xos xusuiyatlar kuzatiladi degan fikrni ilgari surish mumkin. (R.E.Levina, SHaxovskaya S.SH). Ayniqsa, bu tafovutlar meyorni nutqi to'liq rivojlanmaganligi bilan solishtirganda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki ushbu nuqsonlikda nutqiy rivojlanishning barcha tomonlari zararlanadi.

R.E.Levina ta'kidlashicha, nutqning to'liq rivojlanmaganligining III darajasida bolalar nisbatan kengaytirilgan nutqqa ega bo'lib, ko'pgina kundalik so'zlarni noaniq biladilar va talaffuz etadilar. Bolalarning faol lug'ati ot va fe'llardan iborat bo'ladi. Predmet va harakatlarning holatini, shuningdek, harakat usullarini belgilarini va sifatlarini ta'riflovchi so'zlar juda kam.

Tilning grammatik shakllarini shakllanishida kamchiliklar kuzatiladi, ya'ni kelishik qo'shimchalarini qo'llashda xatoliklar, otni kelishikda turlashda, fe'lni shaxs-sonda tuslashda kamchiliklar kuzatiladi. Bolalar yangi so'z hosil qilish usullaridan deyarli foydalanmaydilar. Faol nutqda asosan sodda gaplardan foydalaniladi.

Ko'pchilik bolalarda bu bosqichda tovush talaffuzida kamchiliklar va so'zni tarkibida xatoliklar kuzatiladi. Bu esa tovush tahlil va sintezini egallahda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Kundalik nutqni tushunish asosan yaxshi, lekin ayrim hollarda mazmuni, eshitilishi va talaffuziga ko'ra o'xshash so'z va jumlalarni tushunmaslik kuzatiladi.

Adabiyotlarda nutqi to'liq riivojlanmagan bolalar psixik rivojlanishni harakterlovchi ko'plab dalillar keltirilgan. Nutqi rivojlanmagan bolalarni psixologik-pedagogik xususiyatlarini tadqiqot etish natijalaridan kelib chiqib, bu bolalarda bilish funksiyalarining kamchiliklarini turli darajalari farqlanadi.

Nutqi rivojlanmagan bolalar diqqatini rivojlanishi muammosini o'rganishga qaratilgan ko'plab ishlar mavjud.

Bir vaqtning o‘zida diqqat doimo amaliy faoliyat va bilish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning vositasida shaxsning qiziqishlari va intilishlari ifodalanadi. Diqqat ruhiy faoliyatning bir tomoni sifatida namoyon bo‘ladi hamda bilimlarni egallash, mehnat faoliyatining sifat va samaradorligining, shaxsni o‘z-o‘zini namoyon etishining zaruriy sharti hisoblanadi. Diqqatni shakllantirish masalalari bilan Rubinshteyn S.L., A.V.Petrovskiy, A.N.Leontev, I.S.Kon, N.N.Lange, Galperin P.D., Kabilnitskaya S.L., Dobrinin N.F., Xomskaya B.M., B.M.Teplov, V.D. Nebilitsina singari psixologlar shug‘ullanganlar.

Diqqat bilish jarayoni hisoblanadi va mazkur jarayonni tashkil etish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Diqqat mo‘ljal- tadqiqot faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, obraz, fikr va boshqa hodisalar mazmuniga qaratilgan ruhiy harakatni ifodalaydi. Diqqat aqliy faollikni boshqarishda katta rol o‘ynaydi. “Diqqat hech bir yerda mustaqil jarayon sifatida namoyon bo‘lmaydi, u har qanday ruhiy faoliyatni o‘z obyektiga yo‘nalganligi, qaratilganligi va jamlanganligi sifatida mazkur faoliyatning bir tomoni yoki sifati ko‘rinishida namoyon bo‘ladi” (Galperin Ya.D)<sup>7</sup>. Diqqat o‘zining spetsifik mahsuliga ega emas, uning natijasi har qanday faoliyatning yaxshilanishi hisoblanadi. Agarda inson idrok etayotgan yoki bajarayotganida o‘z diqqatini jamlamasa, hech bir ruhiy jarayon maqsadga yo‘naltirilgan va mahsuldor kechmaydi. Inson biron-bir predmetga qarashi va uni payqamasligi mumkin. O‘z xayollari bilan band inson ovoz uning eshituv apparatiga yetib borishiga qaramay atrofdagilarni eshitmaydi. Inson diqqati biron-bir boshqa narsaga qaratilgan holatda ham og‘riqni sezmasligi mumkin. Aksincha, predmet yoki faoliyatga bor diqqatni jamlar ekan, inson uning barcha detallarini payqaydi va juda mahsuldor harakat ko‘rsatadi, o‘z diqqatini hissiyotlarga qaratar ekan, u o‘zining sezgirligini oshiradi.

Diqqat inson hayoti va faoliyatida ko‘pgina turli funksiyalarni bajaradi. R.S. Nemov ta’kidlaganidek: “Diqqat mazkur damdagi psixologik va fiziologik jarayonlarning zarurlarini faollashtiradi va zarur bo‘limganlarini tormozlaydi,

---

<sup>7</sup> Сиротюк А.Л. Синдром дефицита внимания с гиперактивностью. Диагностика, коррекция, практические рекомендации родителям и педагогам. – М.: ТЦ Сфера, 2003 – 128 с.

inson organizmiga kelib tushadigan axborotlarni tashkillashtirilgan va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda saralashga ko‘maklashadi”<sup>8</sup>.

Diqqat nutqning rivojlanishi jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Diqqat - bu ongning ma’lum obyektga uning yorqin aksini ta’minlovchi jamlanishidir. Diqqat tushunchasiga doir olimlar tomonidan e’tirof etiladigan bir necha nuqtai-nazarlar mavjud. Mazkur nuqtai-nazarlardan birida ta’kidlanishicha, diqqatning o‘ziga xos mustaqil jarayoni mavjud emas, u boshqa ruhiy jarayon yoki faoliyatning bir jihatni sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqa bir ta’kidga ko‘ra, diqqat insonning mustaqil ruhiy holatini, bilish jarayonlarining tavsifiga o‘xshash bo‘lman, o‘z xususiyatiga ega, o‘ziga xos ichki jarayonni ifodalaydi. O‘z nuqtai-nazarini asoslash maqsadida psixologlar inson miyasida aynan diqqat bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos strukturalarni uchratish va ajratib ko‘rsatish mumkinligini, ular boshqa bilish jarayonlarining faoliyat ko‘rsatishini ta’minlovchi strukturalardan anatomik va fiziologik jihatdan nisbatan avtonom ekanligini ko‘rsatib o‘tadilar. Psixologlarning ta’kidlashicha, psixologik fenomenlar tizimida diqqat chindan ham alohida o‘rin egallaydi. U qolgan barcha ruhiy jarayonlar bilan uzviylikka ega, biroq unda boshqa barcha ruhiy jarayonlardan o‘tadigan o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu unda hajm, turg‘unlik, ko‘chuvchanlik singari bevosita bilish jarayonlariga (his etish, idrok, diqqat, tafakkur) taalluqli bo‘lman dinamik, kuzatiladigan va o‘lchanadigan xarakteristikalarining mavjudligidir. Nemov R.S. ko‘rsatishicha, to‘g‘ri qaror har ikkala nuqtai-nazarni birlashtirish va inobatga olishga harakat qilishda, diqqatda jarayonlarning tomonlarini hamda ulardan mustaqil, erkin bo‘lgan jihatlarini ko‘rishdan iborat. Bu - diqqat alohida ruhiy jarayon sifatida mavjud emas, biroq barcha mazkur jarayonlarni xarakterlovchi alohida holatni o‘zida ifodalaydi, degan nuqtai nazarni qabul qilish demakdir. Mazkur pozitsiya taniqli anatomo-fiziologik ma’lumotlar bilan isbotlanadi:

- dominanta mexanizmini bosh miya qobig‘ining butun sirtida kuzatish mumkin;

---

<sup>8</sup> Немов Р.С. Психология: учебник для студ. высш. пед. учеб. заведений: В 3 кн. – 4 изд. – М.: Гуманит. Изд. Центр Владос, 2000. – кн. 1: Общие основы психологии. – 688с.

- retikulyar formatsiya barcha bilish jarayonlariga taalluqli nerv impulslari yo‘lida joylashgan;
- diqqat neyronlari - hujayralar - yangilik detektorlarini bosh miyaning deyarli barcha sirtida va ba’zi ichki strukturalarida uchratish mumkin.

Har uchala faktor markaziy asab tizimida avtonom tarzda, alohida sensor analizatorlardan mustaqil ravishda mavjud bo‘lib, bu uning o‘ziga xos fenomeni haqida dalolat beradi<sup>9</sup>. Diqqatning fiziologik mexanizmi psixologlarning<sup>10</sup> ta’kidiga ko‘ra, nerv tizimining turli darajalarida joylashgan ahamiyatsiz signallarni saralovchi filtr sifatida qabul qilinadi. Diqqat bosh miya o‘zagi va qobiq osti bo‘limlarda joylashgan nerv to‘qimalari bilan anatomik va funksional jihatdan farqlanadigan - retikulyar formatsiya bilan bog‘liq. Retikulyar formatsiya impulslarni bosh miya qobig‘iga o‘tkazish davomida ba’zilarini tormozlaydi, ba’zilarini kuchaytiradi. Buning natijasida yorqin ko‘rvu darajasini ta’minlovchi stimullarni saralash amalga oshadi.

Diqqat mexanizmi miyaning reflektor faoliyati bilan bog‘liq. I.P.Pavlov hayvonlarda “nima?” deb nomlangan refleksni ajratib ko‘rsatdi. Insonlar uchun ham to‘g‘ma bo‘lgan mazkur refleksda diqqatning tashqi qo‘zg‘atuvchilarga bog‘liqligi kuzatiladi, biroq u inson mehnat faoliyati jarayonida rivojlangan ixtiyoriy diqqatning murakkabligini tushuntirib bermaydi.

I.P.Pavlov tomonidan ehtiro qilingan va “qo‘zg‘alishning optimal o‘chog‘i” nomini olgan hodisa diqqat dinamikasining fiziologik tasvirini tushunishga ko‘maklashadi. Har onda miyaga qo‘zg‘atuvchilar (eshituv, ko‘rvu, teri va b.) ta’sir ko‘rsatadi. Ular ta’sirida bosh miya qobig‘ida kuchiga ko‘ra ko‘p sonli qo‘zg‘alish o‘choqlari vujudga keladi. Qo‘zg‘alishning optimal o‘chog‘i o‘rtacha intensivlikka ega, biroq u nisbatan turg‘un hisoblanadi va boshqa o‘choqlarni tormozlaydi. Qo‘zg‘alishning optimal o‘chog‘i dinamiklikka ega. Qo‘zg‘atuvchining o‘zgarishi o‘choqning boshqa miya uchastkalariga ko‘chishiga

---

<sup>9</sup> Немов Р.С. Психология: Учебник для студ. Высш. Пед. Учеб. Заведений: В 3 кн. – 4 изд. – М.: Гуманит. Изд. Центр Владос, 2000. – кн. 1: Общие основы психологии.

<sup>10</sup> Общая психология: Учеб. Посоbие для студ. пед. инстит./Под ред. В.В.Богословского, А.А.Степанова, А.Д.Виноградова и др. М.: Просвещение, 1981. – 383 с.

olib keladi. A.A.Uxtomskiy dominanta haqidagi ta'limotni yaratgan. Qo‘zg‘atuvchining dominanta yoki ustunlik qiluvchi o‘chog‘i qo‘zg‘atuvchining harakatchan optimal o‘chog‘idan yuqori turg‘unligi bilan farq qiladi<sup>11</sup>.

U nafaqat qayta paydo bo‘lgan qo‘zg‘alish o‘choqlarini tormozlaydi, balki ular hisobiga kuchayish, boshqa asab markazlarida paydo bo‘ladigan qo‘zg‘alish jarayonlarini o‘ziga yo‘naltirish imkoniga ega.

Insonning diqqatni tashkil etish faolligiga ko‘ra diqqatning asosiy uch turi ajratiladi: extiyorsiz, extiyoriy va extiyoriydan keyingi.

Ixtiyoriy diqqat o‘z tavsifiga ega:

1. Maqsadga yo‘nalganlik - insonning o‘z oldiga u yoki bu faoliyat davomida qo‘ygan vazifalari bilan belgilanadi;

2. Faoliyatning tashkil etilgan xarakteri - inson u yoki bu predmetga nisbatan e’tiborli bo‘lishga tayyorlanadi, ongli ravishda o‘z diqqatini unga qaratadi, mazkur faoliyat uchun zarur bo‘lgan ruhiy jarayonlarni tashkillashtiradi.

3. Turg‘unlik - diqqat qisqa yoki uzoq muddat davom etadi va ishning vazifalari yoki rejasiga bog‘liq bo‘ladi.

Extiyoriy diqqat hamisha maqsadni ifodalaydigan so‘zlar bilan bog‘liq. Extiyoriy diqqatni shartlaydigan sabablar:

- mazkur faoliyat turi bilan mashg‘ul bo‘lishga undovchi inson qiziqishlari;
- mazkur faoliyat turini imkon qadar yaxshiroq bajarishni talab etuvchi burch va majburiyatni anglash. Psixologlar (Bogoslovskiy V.V., Stepanov A.A., Vinogradov A.D.) tashqi va ichki diqqatni ajratib ko‘rsatadilar. Inson diqqati uning boshqa kishilar bilan o‘zaro faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, o‘quv shaklidan kelib chiqib psixologlar jamoali, guruhli va yakka diqqatni ajratadilar. Nemov R.S<sup>12</sup> tabiatan berilgan va ijtimoiy shartlangan diqqatni, bevosita va bilvosita diqqatni, extiyoriy va extiyorsiz diqqatni, hissiy va aqliy diqqatni ajratadi. Diqqat idrok etilayotgan

<sup>11</sup> Выготский Л.С. История развития высших психологических функций.// Собр. Соч.: В 6т, М., 1983. Т. Общая психология: Учеб. Пособие для студ. пед. института./Под ред. В.В.Богословского, А.А.Степанова, А.Д.Виноградова и др. М.: Просвещение, 1981. – 383 с.

<sup>12</sup> Немов Р.С. Психология: Учебник для студ. Высш. Пед. Учеб. Заведений: В 3 кн. – 4 изд. – М.: Гуманит. Изд. Центр Владос, 2000. – кн. 1: Общие основы психологии. – 688с.

obyektlar, harakatlar, tasavvurlar, fikrlarga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Diqqat namoyon bo‘lishining sensor-perseptiv (ko‘rv, eshituv, taktil), motor, intellektual turlari ajratiladi. Diqqat turli sifat va belgilar bilan xarakterlanadi, birlamchi (hajm, turg‘unlik, konsentratsiya, taqsimlanish) va ikkilamchi (ko‘chuvchanlik va o‘zgaruvchanlik) sifatlarning o‘zaro aloqasi natijasida hosil bo‘lgan murakkab funksional strukturaga ega.

**Hajm** – bu bir vaqtning o‘zida yetarlicha aniqlik bilan idrok etiladigan obyektlar miqdori. Katta yoshli insonning diqqat hajmi 4-7 obyektni, bolalarda 2-3 obyektni tashkil etadi. Psixologlarning ta’kidlashicha, diqqat hajmi figura va fonning, ya’ni obyektlarning miqdor nisbatiga bog‘liq. Ba’zi obyektlarni diqqat bilan ajratish kerak, ba’zilaridan chalg‘ish zarur. Diqqat hajmining kengayishiga nutq, ta’limning mustaqilligi va faoliyatning o‘ziga xosligi ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi.

**Turg‘unlik** –bu birgina predmet yoki faoliyatga diqqatni qaratish davomiyligi. Turg‘unlik predmet bilan bajariladigan amaliy faoliyatda ham, faol aqliy ishda ham saqlanib qolaveradi. Nisbatan uzoq vaqt davomida faoliyatning yuqori mahsuldarligi turg‘unlikning ko‘rsatkichi hisoblanadi. Turg‘unlikning o‘zi esa diqqatning davomiyligi va konsentratsiya darajasi bilan xarakterlanadi.

**Konsentratsiya** – bu diqqatning jamlanganlik darajasi. Diqqatning konsentratsiyasi barcha ortiqcha narsalardan bir vaqtning o‘zida chalg‘ishni nazarda tutadi. Bu miyaga kelib tushadigan axborotni anglash va muhrlashning muhim sharti. Diqqatning konsentratsiyasi diqqatning hajmi va taqsimlanishi bilan uzviy bog‘liq. Diqqatni taqsimlash lozim bo‘lgan obyektlar, faoliyat turlari qanchalik kam bo‘lsa, kuchli konsentratsiya etish imkoniyati shu qadar ko‘p.

**Taqsimlash** – bu insonning bir vaqtning o‘zida diqqat markazida ma’lum miqdordagi obyektlarni ushlab turish imkoniyatidir, ya’ni bu bir vaqtning o‘zida ikki yoki bir necha obyektlarga ular bilan bir vaqtning o‘zida harakatlarni bajarish yoki ularni kuzatish davomidagi bo‘lgan diqqatdir. Diqqatning taqsimlanishi – bu bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq turli faoliyat turlarini samarali bajarish

imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lgan diqqat sifatidir. Diqqatning taqsimlanishi insonning psixologik va fiziologik holatiga bog‘liq.

**Ko‘chuvchanlik** – bu diqqatning yangi vazifaning belgilanishi bois bir obyektdan boshqa bir obyektga ongli ko‘chishidir. U murakkab vaziyatda tez mo‘ljal olish imkoniyatini ifodalaydi va irodaviy urinishlarda aks etuvchi asab zo‘riqishlari bilan birgalikda kuzatiladi. Ko‘chuvchanlik to‘liq va noto‘liq bo‘ladi. Diqqatning ko‘chuvchanligi nerv jarayonlarining harakatchanligiga – qo‘zg‘alish va tormozlanishning o‘zgarish tezligiga bog‘liq. Nerv jarayonlarining inertligi diqqatning ko‘chishini murakkablashtiradi. Biroq diqqatning ko‘chuvchanligi mashq qilinadigan sifatlar sirasiga kiradi.

Inson diqqati ma’lum miqdorda temperament va insonning yo‘nalganligi bilan shartlanadi (A.A.Lyublinskaya)<sup>13</sup>. Biroq mazkur sifatlarning barchasini mashqlar yo‘li bilan rivojlantirish mumkin.

Shunday qilib, diqqat – bu ruhiy faollikning ma’lum obyektga yo‘nalganligi va qaratilganligidir. Mazkur ruhiy jarayon ham tashqi, ham ichki faoliyatning samarali amalga oshishining sharti, uning mahsuli esa – uning sifatli bajarilishi hisoblanadi.

Chalg‘uvchanlik, parishonlik, haddan ortiq harakatchanlik va inertlik singari diqqat jarayoni yoki diqqat buzilishlarining salbiy jihatlari mavjud.

Diqqat buzilishlari bu – toliqish holatlari yoki miyaning organik jarohatlanishida, diqqat obyekting torayishida, ya’ni inson faqatgina kichik miqdordagi obyektlarni idrok etishi mumkin bo‘lgan holatda diqqatning turg‘un emasligida, ya’ni diqqat konsentratsiyasining buzilishida va qo‘zg‘atuvchilarga bo‘lgan chalg‘ish holatlarida ruhiy faoliyat yo‘nalganligining patologik o‘zgarishlaridir.

Buzilish sabablari tashqi va ichki bo‘lishi mumkin. Tashqi sabablarga turli negativ ta’sirlar va bolaning atrofdagi insonlarga bo‘lgan negativ munosabatini

---

<sup>13</sup> А.А.Люблинская. «Детская психология». М.,1981

kiritish mumkin. Ichki sabablarning ta'sirini buzilgan ruhiyatning bir qismini sog'gomiga ta'sir etishi ko'rinishi sifatida tasavvur etish mumkin.

Diqqat buzilishlariga quyidagilar kiradi:

- diqqatni saqlay olmaslik: bola topshiriqni oxirigacha bajara olmaydi, uni bajarish davomida parishon;
- extiyoriy diqqatning pasayishi, predmetda diqqatni jamlashga qodir emaslik;
- yuqori chalg'uvchanlik: topshiriqni bajarish davomida bolalar sustligi, ko'pincha bir topshiriqdan ikkinchi bir topshiriqqa o'tib ketadilar;
- odatdan tashqari vaziyatlarda mustaqil harakat ko'rsatish talab etilgan holatda diqqatning pasayishi.

Diqqat buzilishlarining turlari: chalg'uvchanlik, parishonlik, yuqori harakatchanlik, inertlik, diqat hajmining torayishi, diqqatning turg'un emasligi.

## **1.2.Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar diqqatining rivojlanish xususiyatlari**

Psixologik xususiyatlarni o'rganishda ixtiyoriy diqqat bolaning bilish faoliyatlarida va ularni tashkil etishdagi muhim omil sifatida katta ahamiyatga ega. Diqqat- bu ongni ma'lum bir haqiqiy yoki hayolik obyektiga to'plash yo'naltirish bo'lib, bu individning sensor, intellektual yoki harakat faolligini oshirishni ko'zda tutadi.O'zining kelib chiqishi va vositalariga ko'ra diqqat ikkita asosiy turlarga ajratiladi : ixtiyoriy va ixtiyorsiz.

L.S.Vgotskiy predmetli faoliyatda va kattalar bilan faoliyati jarayonida doimiy nutqni egallashi ularda ixtiyoriy diqqatni o'zlashtirishlarini ko'rsatadi. Diqqatni genetik tushunish kaliti sifatida L.S.Vgotskiy uning ildizlarini bola shaxsida emas, uning tashqarisida ko'radi. Vigotskiyning fikricha, bolada ixtiyoriy diqqatni paydo bo'lishida kattalarning so'zli ko'rsatmasi haddan ziyod muhim rol o'ynaydi, chunki ma'lum bir obyektlarga qo'shimcha reflekslarni qaratish diqqatning belgi tizimlariga aasosiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar diqqatlari xususiyatlarini O.N.Usanova, Yu.F.Garkusha va boshqalar o‘rganishgan. Aniqlanishicha, nutqi to‘lik rivojlanmagan bolalarda diqqat qator xususiyatlari bilan xarakterlanadi: turg‘unsizligi, ixtiyoriy diqqat ko‘rsatkichlarining anchagina pastligi, o‘z faoliyatlarinirejalashtirishdagi qiyinchiliklar. Bolalar sharoitni taxlil qilishda, muammoni hal etish usullari va vositlarini topishda diqqatini qiyinchilik bilan to‘playdilar.

Turli modallikdagi qo‘zg‘atuvchilarga ( ko‘ruv va eshituv) bog‘liq ravishda ixtiyoriy diqqatni turlicha namoyon bo‘lishi aniqlangan: nutq nuqsonlariga ega bo‘lgan bolalarda topshiriqni so‘zli ko‘rsatmalar orqali bajarishda diqqatni to‘plash, ko‘rgazmali topshiriqlarga qaraganda ancha qiyin kechadi. So‘zli ko‘rsatmali topshiriqlarni bajarishda rang, shakl, shakllarning joylashuvini farqlash bilan bog‘liq ko‘pgina qo‘pol kamchiliklar kuzatiladi. NTR mактабгача yoshdagи bolalarda faoliyat tempi ish jarayonida pasyadi. Nutq nuqsoniga eag bo‘lgan bolalarda diqqatni nutq va amalish jaryoniga taqsimlash qiyin, uddalab bo‘lmaydigan vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga ularda nutqiy reaksiyalar aniqlashtiruvchi va ta’kidlovchi xarakterda bo‘lib, shu bilan bir vaqtida meyoriy nutq rivojlanishiga ega bolalar kabi ayni vaqtida bajarilayotgan ishga bog‘liq bo‘lmagan murakkab qo‘srimcha ta’sirlar ham kuzatiladi.

NTR bolalarda diqqat kamchiliklari butun ish davomida kuzatiladi va u har doim ham ular tomonidan mustaqil aniqlanmaydi va tuzatilmaydi. Hatoliklar xarakteri va ularni vaqtga ko‘ra taqsimlanishi sifat jihatidan meyordan farq qiladi.

Faoliyat bo‘yicha barcha nazorat turlari (tayyorlov, joriy va keyingi) ko‘pincha shakllanmagan yoki sezilarli buzilgan hisoblanadi, bunda ko‘pincha tayyorlov va joriy nazorat (topshiriqni bajarish jarayonida) buziladi, bu topshiriqni shartini tushunmaslik bilan bog‘liq. So‘nggi nazorat (natijalarni nazorati), uning alohida elementlari asosan pedagogning qo‘srimcha yordamidan keyin paydo bo‘ladi: ko‘rsatmani takrorlash, namunani ko‘rsatish, aniq ko‘rsatmalar va boshqalar talab etiladi.

Shubhasiz, nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda ixtiyoriy diqqatning buzilishi ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan kuzatilgan (R.A.Belova - David) bo‘lib,

bu toifa bolalarning butun psixik rivojlanishida to‘liqsizlik va buzilishli xarakterga ega. Ba’zi olimlar ixtiyoriy diqqatning shakllanmaganligini bolalarning psixik faoliyatlarining ba’zi omillrini o‘rganishda ko‘radi. R.V.Levina ixtiyoriy diqqatni buzilishini o‘zi ajratgan nutq nuqsonlariga ega bo‘lgan uch guruh bolalarning shu va faoliyatlarida kuzatadi. Ba’zi bilimlarni shakllanmaganligi va ayniqsa psixik faoliyatlarini mustaqil boshqara olmaslik V.L. Kovshikov, K.A. Elkoninlar fikricha, ko‘pgina, nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda tafakkuri va natijalari ga ta’sir ko‘rsatadi. S.N. SHaxovskaya alalik bolalarga tez charchash, diqqatning turli xususiyatlarining rivojlanishini pastligi xosligini ko‘rsatgan. Ya.F. Sobatovich charchash, diqqatning turg‘unsizligi o‘quv faoliyatida ma’lum tafakkur shakllarining yetakchi emasligi va tezkorlikning yo‘qligidan deb hisoblaydi. Boshqa olimlar tomonidan ixtiyoriy diqqatning buzilishi bu toifa bolalarning psixoorganik simptomatikasini tahlil qilish jarayonida o‘rganiladi. Demak, R.A.Belova - David nutqi har tomonlama to‘liq rivojlanmagan bolalami o‘rganib, diqqatning turg‘unsizligi va ko‘laming torligi, faollik va maqsadga yo‘nalganlikning yo‘qligi, tez charchash barcha psixik faoliyatlar , shuningdek, nutqda ham mahsuldorlikning pastligining sabsbi ekanligini aniqlagan. G.V.Gurovets motor alaliyali bolalarni ikki guruhga ( motor- premotor va motor markazi) ajratib, bu ikkala guruhda ham faol diqqatning turg‘un emasligini ko‘rsatadi, birinchi guruhga tez charchash va ikkichi guruhga tormozlanish turg‘unsizlik xosligini ko‘rsatadi.

Shunga ko‘ra turli nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda sog‘lom bolalarga qaraganda sezilarli darajadagi diqqat buzilishlari kuzatiladi, deb aytish mumkin, ammo bu buzilishlar individual xususiyatlarga ko‘ra belgilanadi.

Olingan ma’lumotlar tahlilining ko‘rsatishicha, nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda ixtiyoriy diqqat buzilishlari ko‘rsatkichlari nutqi meyorda rivojlanayotgan bolalarnikidan sezilarli darajada past. Eksperimental ma’lumotlarning ko‘rsatishicha, nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda ko‘pgina topshiriqlarni bajarishda nutqi meyorda rivojlanayotgan bolalarga qaraganda ko‘proq vaqt talab etiladi. Masalan, motor alalaik bolalari ko‘ruv diktantini 8 minut 41 sekundda ( meyorda – 7 min. 8 sek), topshiriqni bajarish uchun diqqatni to‘plash vaqt, qiziqarsiz materialga

diqqatni jalb qilish uchun 4 minut 14 sekund (meyorda – 6 min 19sek.) talab etildi, shunga o‘xhash topshiriq o‘yin shaklida berilganda, ko‘rsatkichlar ortdi: maksimal diqqat to‘plash uchun nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda umumiy vaqtga 4 minut 37 sekund va nutqi meyorda rivojlanayotgan bolalarga esa 7 minut 24 sekund vaqt talab etildi.

Qator boshqa eksperimental ma’lumotlar ham nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda ixtiyoriy diqqatning pastligini ko‘rsatadi: ko‘rilgan belgilarning tuzatilishini tekshirish uchun nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarga 3 minut talab etilib 57, 1 (meyorda – 84, 1) ni tashkil etdi, bunda yo‘l qo‘yilgan o‘rtacha xatoliklar 10, 6 ni tashkilettdi; o‘rtacha tushirib qoldirilgan belgilar 3,5 va 5, 8 marta meyordan ko‘pligini ko‘rsatdi, elementlarni rangiga ko‘ra ajratishda o‘rtacha ajratilgan elementlar 200 ta bo‘lib, (meyorda – 256) nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan hatoliklar bunda sog‘lom bolalarga qaraganda 7 marta ko‘pligini ko‘rsatdi.

Keyingi eksperiment natijalarining ko‘rsatishicha, nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarga asosan faoliyatning reproduktiv turi xos bo‘lib, nutqi meyorda rivojlanayotgan bolalar uchun esa- produktiv faoliyat xosdir. Masalan, qkrish- yasash topshiriqlarini bajarishda ham nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar tadqiqotching namunasidan foydalanishadi. Nutqi meyorda rivojlanayotgan bolalar faqat pedagog ko‘rsatmalariga amal qilgan holda, mustaqil ancha murakkab qurilmalarni yasay oladilar( poyezd, uy va hakozo), shu bilan bir vaqtida ular topshiriq shartlariga javob bera oladi, agar ular hatoliklarga yo‘l qo‘ysalar (rangida, detallar sonida) buni o‘zları topishadi va tuzatishadi. O‘yin vaqtida vazifani bajarishda (elementlarni yig‘ish) nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar nutqi meyorda rivojlanayotgan bolalar kabi ishning ancha mahsuldor turlaridan foydalanadilar, bu ularning qobiliyatlanini ushbu sharoitda yuqori darajaga ko‘tarilishidan dalolat beradi.

Tadqiqotching ko‘rsatmalarini turi nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar diqqatini to‘planishiga ta’sir qiladi: So‘zli ko‘rsatmalar sharoitida topshiriqlarni bajarilish darajasi ancha past bo‘ladi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar har doim ham tadqiqotchi tomonidan berilgan

topshiriqlarni qabul qila olmaydi, ular uchun pedagog ko'rsatmasini qisman, noaniq idrok etish xos bo'lib, topshiriqlarni turli kamchiliklar bilan bajarishadi. Bundan tashqari, tadqiqotlar asosida belgilangan vaqt oralig'ida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar va nutqi meyorda rivojlanayotgan bolalarda topshiriqlarni bajarishdagi kamchiliklari xarakteri aniqlandi ( 20 minutda).

Agar, nutqi meyorda rivojlanayotgan bolalarda ko'pgina hatoliklar mo'ljal olish davriga to'g'ri kelsa ( birinchi 5 minutga), 10- minutdan – 20 - minutgacha hatoliklar kam uchraydi , nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda esa hatoliklar faoliyat jarayonining butun davrida kuzatiladi, 10 - 15 minutda kamchiliklar soni biroz kamayadi, bunda bolalar faolift ko'nikmalarini egallab oltshgan bo'ladi, keyin 15-20 minutgacha vaqtida ham 1-5 minutdagidek hatoliklar kuzatiladi, bu nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar charchaganda diqqatning turg'unligini pasayishidan dalolat beradi.

Ixtiyoriy diqqat darajasini baholashdagi muhim ko'rsatkichlardan biri chalg'itish xarakteri hisoblanadi. Tadqiqot davomida eksperimental va nazorat guruhlari bolalari dagi chalg'ish xarakterining turichaligi faoliyat tizimining shakllanganlik darajasiga bog'liq. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda faoliyat tizimi yo shakllanmagan, yoki sezilarli darajada buzilgan, bu ixtiyoriy diqqatning past darajada rivojlanganligiga sabablardan biri hisoblanadi. Masalan; nutqi meyorda rivojlangan bolarga tadqiqotchining chag'itishi xos bo'lsa ( bolalar tadqiqotchiga qarashadi va bunda uning reaksiyasiga qarab topshiriqni to'g'ri yoki noto'g'ri bajarayotganliklarini aniqlashga harakat qilishadi), nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda esa bu chalg'itishlar quyidagicha namoyon bo'ladi: " oynaga qaraydi( har tomonga)", " topshiriqni bajarishga bog'liq bo'lmagan harakatlar qiladi" va hakozo.

Ta'limiyl eksperiment natijasida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni o'qitishda topshiriqlarni muntazam asta-sekin murakkablashtirib borish katta

samara beradi va bu toifa bolalarga sog‘lom bolalardan ko‘ra ko‘proq son va sifat jihatdan tadqiqotchining yordami kerak bo‘ladi .

Shunga ko‘ra , turli tadqiqotlar natijalarining tahliliga asaslanib nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalardagi diqqat xususiyatlari to‘g‘risida xulosa qilish mumkin

Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda ixtiyoriy diqqat xususiyatlarining sonli ko‘rsatkichlari nutqi meyorda rivojlangan bolalarga qaraganda ancha past . Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalardaga reproduetiv ( meyorda- produktiv) faoliyat va faoliyat taktikasining pastligi xosdir. O‘yin sharoitida topshiriqni bajarishda nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar sog‘lom bolalar kabi faoliyatning ancha mahsuldor taktikalarini qo‘llashadi, bu ularning qobiliyatlanini ushbu sharoitda yuqori darajaga ko‘tarilishidan dalolat beradi. Bolalar chalg‘ishi xarakteridagi farqlar faoliyat tizimining shakllanganligi bilan bog‘liq. Ixtiyoriy diqqatning buzilishi faoliyatni tashkil etishning muhim omili sifatida faoliyatning shakllanmasligiga yoki, sezilarli darajada buzilishiga olib keladi.

## **I bob bo‘yicha xulosa.**

Adabiyot manbalarini tahlil etar ekanmiz, nutqning rivojlanmaganligi so‘zning tibbiy ma’nosida mustaqil nozologik birlikni ifodalamaydi degan xulosaga keldik. Bu bolalar nutqiy jihatdan rivojlanishida chetga chiqishlarning mexanizmi, belgisi, tizimi, og‘irligiga ko‘ra turli-tuman bo‘lgan guruhlar yig‘indisidir.

Bolalarda nutqning rivojlanmaganlik mexanizmlari yetarlicha o‘rganilmagan. Bu bir tomonidan yetakchi psixojismoniy shart-sharoitlar, boshqa bir tomondan – bolalarda nutq rivojlanishining alohida shakllarida til imkoniyatlari shakllanishining kognitiv va nutq mexanizmlari haqida gapirish imkonini beradi.

Nutqiy faoliyat – tizimli jarayon bo‘lib, o‘z ichiga verbal va noverbal komponentlarni oladi. Ularning birligi qator omillar, birinchi navbatda nutqiy singari, nutqiy bo‘lmagan faoliyat turi va shakllari nutqiy kommunikatsiya vaziyati, amaliy yoki intellektual vazifalar xarakteri bilan belgilanadi.

Nutqiy dizontogenet sharoitida oliy psixik faoliyat va bolaning hissiy-irodaviy doirasi o‘ziga xos tarzda kechadi. Nutqning yetarlicha shakllanmaganligi va kognitiv funksiyalarning murakkab o‘zaro ta’siri kuzatiladi.

Diqqat – bolaning ruxiy rivojlanishini baxolashda asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir.

Diqqat muammosi klassik psixolog olimlar L.S.Vgotskiy, V.Vund, I.L.Baskakova, Ya.D.Galperin, F.N.Gonoblin, N.V.Dobrinin, S.L.Rubinshteyn va boshqalar ilmiy tadqiqotlarida markaziy o‘rinni egallagan, xozirgi kunda xam kongnitiv psixologiyada, bu muammoning dolzarbligini xozirgi zamon, psixolog psixofiziolog olimlari, N.V.Dobrinina, S.G.Yakobosonlarning katta xamjdagi ilmiy ishlari tasdiqlab turibdi.

## **II-BOB. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ruxiy jarayonlarini (diqqatini) eksperimental tadqiq etish.**

### **2.1. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni psixologik tekshirish metodikasi.**

Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tekshirishdan asosiy maqsad – Nutqi rivojlanmagan bolalar diqqatining rivojlanganlik darajasini aniqlash ilgari surilgan bo‘lib, quyidagi vazifalar asosida olib borildi:

- Tarbiyalanuvchilarning anamnez ma’lumotlarini o‘rganib chiqish;
- Nutqi rivojlanmagan bolalar guruhini kuzatish;
- Har bir bolaning diqqatining rivojlanganlik darajasini aniqlash;
- Eksperimental bolalar guruhini aniqlash;

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Anamnez ma’lumotlarini tahlil qilish metodi;
- Kuzatish metodi;
- Suhbat;

Nutq bolalarning barcha asosiy psixik jarayonlarini tartibga soladi. Shularni hisobga olib, biz eksperimental tekshirish ishlarimizni o‘tkazish davomida maktabgacha 5-6 yoshdagi Nutqi rivojlanmagan bolalar diqqatining, rivojlanish xolatini o‘rganishga e’tibor qaratdik va quyidagi psixologik metodikalarga tayandik.

#### **Diqqatni tekshirish**

##### **Toshiriq №1**

##### **“Juft predmetlarni topish”**

Maqsad: predmetlardagi asosiy o‘xhashlik bo‘yicha ularni juftlay olish, umumiyligi o‘xhashligini aniqlash malkasini tekshirish.

Tayyorgarlik: turli ko‘rinish hamda rangdagi o‘ynchoqlar, idish-tovoq buyumlari, o‘quv qurollari (qalam, buyoq, ruchka...)

Bola taklif etilgan 8-10 ta predmet ichidan juft predmetlarni aniqlashi (guruhashchi) lozim. Bunda predmetlarning ikkinchi darajali sifat belgilari (rangi,

ko‘rinishi) muhim axamiyatga ega emas. Masalan: bola rasmlar ichidan ikkita ko‘rinishda bo‘lsa ham ammo kosalar rasmini ajratib oladi (umumiyl o‘xhashlik)

### Topshiriq №2

#### **“Namuna bo‘yicha shakllarni bo‘yash”**

Maqsad: bolalarning diqqatini teshirish, shakl va rang haqidagi tasavvurlarini aniqlash

Tayyorgarlik: 5-6 ta turli rangda bo‘yagan geometrik shakllar tasvirlangan 20x15 xajmdagi kartochka. Har bir bola uchun xuddi shunday ketma-ketlikda shakllar tasvirlangan ammo bo‘yalmagan kartochkalar.

Bola namunaga ko‘ra o‘zining kartochkasidagi shakllarni mos rang bilan bo‘yashi lozim.

### Topshiriq №3

#### **“To‘g‘ri top”**

Maqsad: qatordagi 8-10 ta rasmlar orasidan namunadagi predmet tasvirini topish.

Tayyorgarlik: rasqli kartochkalar, o‘yinchoq kundalik ixtiyoj buyumlari, o‘quv qurollari.

Bola oldiga turli rasmlar qo‘yib chiqilgach, ularni ko‘zdan kechirib olishi uchun vaqt beriladi. So‘ngra bolaga muayan predmet berilib, undan rasmlar orasidan ushbu predmetning tasvirini ko‘rsatish so‘raladi. Bunda bola predmetni og‘zaki nomlashi shart emas.

### Topshiriq №4

#### **“Belgilarni qo‘yib chiq” metodikasi**

Metodika bola diqqatining taqsimlanishi va o‘zgaruvchanligini baxolash uchun mo‘ljallangan. Topshiriqni bajarishga kirishishdan oldin bolaga jadval ko‘rsatiladi va u bilan qanday ishslash tushuntiriladi. Jadvalda tasodifiy xolatlardagi bir necha geometrik shakl berilgan. Bolaga yuqorida ichida kerakli belgilari bor to‘rtta geometrik shakl berilgan. Bolaga yuqoridagi namunada ko‘rsatilganidek, kvadratga – galochka (V), uchburchaka – chiziqcha (-), aylanaga – qo‘shuv (+) va rombga nuqta (.) belgisini qo‘yishi kerak.

Bola bu vazifani ikki daqiqa davomida bajaradi. Agarda bola vazifani belgilangan vaqtda bajara olmasa, psixolog ikki daqiqadan o‘tib ketganligini blankda qayd etadi, bola esa vazifani bajarishda davom etadi. Oxirida xamma vazifalarni bajarish uchun ketgan vaqtini belgilab qo‘yish kerak.

Bola tomonidan vazifa bajarib bo‘lingandan so‘ng, unga dam olish uchun (3 – 5 daqiqa) vaqt bering, so‘ng bolaning o‘ziga vazifani to‘g‘ri bajarganligini tekshirib ko‘rishini tavsiya etish mumkin. Bolaga boshqa rangdagi ruchka yoki qalamni tavsiya qiling va u blankada o‘zining xatolarini belgilab qo‘ysin.

Agar bola o‘zini mustaqil tekshirishda xamma xatolarini topgan bo‘lsa, unda uning diqqatining taqsimlanishi va ko‘chishining shakllanmaganligini, lekin ularning o‘zgaruvchanligi xaqida fikr yuritish mumkin. Bunday xolatda vazifani bajarish vaqtini chegaralagan xolda diqqatni kuchaytirishni shakllantirish bo‘yicha mashq qilish zarur. Bu metodikaning imkoniyatlari yana shunda namoyon bo‘ladiki, undan diqqat jarayonini korreksiya qilishda foydalanish mumkin. Faqat bunda bolaga vaqtini chegaralamagan xolatda vazifani bajarish tavsiya etiladi.

### **Diqqatning ko‘chishi va taqsimlanish darajasi xaqidagi xulosalar.**

- 10 ball – juda yuqori.
- 8-9 ball – yuqori
- 6-7 balla – o‘rtacha
- 4-5 ball – past
- 0-3 ball – juda past

### **Topshiriq №5**

#### **“Korrektur sinov” metodikasi**

Bu vazifa diqqatning barqarorligi va samaradorligini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Bolaga rasm ko‘rsatiladi. Unda tasodifiy tartibda oddiy shakllar tasvirlangan: qo‘ziqorin, gul, bayroqcha, romb, qayiqcha, baliqcha, kvadrat, yulduzcha, aylana, uchburchaklar. Bola tadqiqot boshlanishidan oldin quyidagi yo‘riqnomani oladi:

“Xozir senga tanish bo‘lgan shakllar chizilgan rasmlar jadvali ko‘rsatiladi. Ular jadval yuqorisida aloxida taqdim etilgan. Vazifa shundan iboratki, sen

qandaydir shaklni o‘chirishing kerak. Sen o‘zing qaysi shaklni va qanday qilib o‘chirishingni tanlab olasan”.

Shuni inobatga olish zarurki, mактабгача yoshdagi bolalar uchun bu vazifa murakkab xisobланади, xatto ularga material tanish bo‘lsa xam, bolani shoshiltirish, xatolariga axamiyat berish yoki vaqtни ko‘rsatish kerak emas. Bola vazifani bajarib bo‘lgandan so‘ng, uning o‘ziga xatolarini tekshirib chiqish tavsiya etiladi. Bunday testni emotсional – qulay sharoitda psixolog 2 ta natija oladi:

Birinchi natija – diqqat jarayonining mavjudlik darajasini aniqlab beradi.

Ikkинчи natija – diqqatning barqarorligi, samaradorligi va ko‘chishining shakllanish xususiyati rivojlanadi va bolada bunday vazifani bajarishga istak paydo bo‘лади.

Test natijalarining baxosi. Natjalarni baxolashda va taxlil qilishda bola tomonidan ko‘rib chiqilgan rasmdagi buyumlar soni topshiriqni bajarishga sarflangan vaqt davomida aniqlanadi. Olingan ma’lumotlar bolada bir vaqtning o‘zida diqqatning 2 ta xususiyati: barqarorligi va samaradorligi rivojlanmaganligining umumiyo ko‘rsatkich darajasini aniqlashi imkonini beradi.

### **Dиққатning barqarorlik va samaradorlik darajasining rivojlanganligi haqidagi xulosalar.**

- 10 ball – diqqatning barqarorligi va samaradorligi juda yuqori.
- 8-9 ball – diqqatning barqarorligi va samaradorligi yuqori
- 4-7 balla – diqqatning barqarorligi va samaradorligi o‘rtacha
- 2-3 ball – diqqatning barqarorligi va samaradorligi xam past
- 0-1 ball – diqqatning barqarorligi va samaradorligi juda past

## **2.2. Nutqi rivojlanmagan bolalarni psixologik tekshirish natijalari**

Biz ilmiy tadqiqot ishimiz bo'yicha tajriba – sinov Qo'qon shahar Muqimiy shaharchasidagi 39 – og'ir nutq nuqsoniga ega bolalarga ixtisoslashtirligan maktabgacha ta'lim muassasasida olib bordik.

Biz Nutqi rivojlanmagan bolalarning diqqati rivojlanishini tekshirishda quyidagi "Juft predmetlarni topish", "Namuna bo'yicha shakllarni bo'yash", "Belgilarni qo'yib chiq", "Korrektur sinov", "To'g'ri top" kabi psixologik uslubiyatlardan foydalandik.

Tadqiqotimizni o'tkazish uchun Nutqi rivojlanmagan 5-6 yoshli bolalardan 10 nafar tanlab olindi. Ulardan 4 nafari qiz, 6 nafari o'g'il bolalar.

Tekshiruv ishimizni 3 bosqichda olib bordik.

I bosqichda guruh logopedi bilan suhbatlashdik, suhbat davomida bolalarning rivojlanish tarixi, psixologik-pedagogik tavsiyanomalari va boshqa hujjatlarini o'rgandik.

II bosqichda bolalarni o'yin va mashg'ulot jarayonlarida kuzatdik.

III bosqichda duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning diqqatini o'rganish uchun psixologik tekshirish metodikalarini aniqladik va ularning diqqat jarayonlarini tekshirdik.

Tekshirish natijalari quyidagi 1-jadvalda ifodalandi.

**Eksperimental va nazorat guruxidagi maktabgacha yoshdagи bolalarda  
diqqatni tekshirish natijalari (%) xisobida**

1-jadval

№	Parametrlar	Diqqatning xajmi		Diqqatning turg‘unligi		Diqqatning ko‘chishi	
		Nutqi rivojlanmagan bolalardan:	Nutqi me’ yorda rivojlangan bolalardan:	Nutqi rivojlanmagan bolalardan:	Nutqi me’ yorda rivojlangan bolalardan:	Nutqi rivojlanmagan bolalardan:	Nutqi me’ yorda rivojlangan bolalardan:
1	Yuqori	32 %	66%	0%	8%	15%	16%
2	O‘rta	43%	34%	11%	38%	21%	21%
3	Past	25%	0%	39%	54%	14%	63%
4	Juda past	0%	0%	50%	0%	50%	0%

Diagramma № 1




Diagramma №2





Diagramma №3



Eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, diqqatning xajmi Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxida 32 % yuqori darajada, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar guruxida 66 % yuqori darajada, Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxida 43% o'rta darajada, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar guruxida 34 % o'rta darajada, Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxida 25 % past darajada, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar guruxida past daraja kuzatilmadi. Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxi va nutqi me'yorda rivojlangan bolalar guruxlarida juda past darajalar kuzatilmadi.

Diqqatning turg'unligi Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxida yuqori daraja ko'rsatkichlari bo'lmasdi, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar guruxida 8 % yuqori darajada, o'rta daraja Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxida 11 %, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar guruxida 38 %, past daraja Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxida 39 %, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar guruxida 54 %, juda past daraja Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxida 50 % kuzatildi, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar guruxida juda past ko'rsatkichlar kuzatilmadi.

Diqqatning ko'chishi yuqori darajada Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxida 15 %, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar guruxida 16 %;

O'rta daraja Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxida 21 %, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar guruxida xam 21 % tashkil etdi.

Past daraja Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxida 63 %, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar guruxida 14 % tashkil etdi.

Juda past daraja Nutqi rivojlanmagan bolalar guruxida 50 % kuzatildi, nutqi me'yorda rivojlanayotgan bolalar guruxida juda past ko'rsatkichlar kuzatilmadi.

## **II bob bo‘yicha xulosa**

Tadqiqot ma’lumotlarining tahlili quyidagilarni aniqlash imkonini berdi:

1. Maktabgacha yoshdagi Nutqi rivojlanmagan bolalarda diqqatning yetarlicha rivojlanmaganligi ularda til va nutq imkoniyatlarining takomillashmaganligi bilan uzviy bog‘liq. Nutqi rivojlanmagan bolalarning diqqatning shakllanganlik darajasi o‘rtasida murakkab o‘zaro bog‘liqlik mavjud.

2. Nutqi rivojlanmagan bolalarning diqqat xususiyatlari neyrodinamik jarayonlarning yetarli emasligi bilan belgilanib, diqqat faoliyatning inertligi, nofaolligi; diqqat faoliyatning zo‘riqishi, notejisligi, impulsivligi; diqqat faoliyatni boshqarish va nazorat etishning buzilishida; og‘zaki materialni yodda olib qolish jarayonining yetarlicha samarali emasligida namoyon bo‘ladi.

3. Diqqatning aniqlangan kamchiliklari turli mezonlarga ko‘ra maktabgacha yoshdagi Nutqi rivojlanmagan bolalarda mavjud nuqsonlar strukturasida ajralmas komponent hisoblanadi.

Og‘zaki materialni itiyoriy yodda olib qolishning aniqlangan individual o‘ziga xosliklarini Nutqi rivojlanmagan bolalar bilan tashkil etiladigan korreksion-rivojlantiruvchi jarayon mazmunini qurish va ishlab chiqishda e’tiborga olish lozim.

Maktabgacha yoshdagi Nutqi rivojlanmagan bolalarda diqqat xususiyatlarini rivojlantirish nutq komponentlarini shakllantirish va rivojlantirishga doir logopedik ishlar bilan birgalikda amalga oshirilishi mazkur bolalarni savodni egallash, tovush analizi va sintezi malakalarini o‘zlashtirish, lug‘at boyligini kengaytirish, bolalar tomonidan boshlang‘ich o‘qish va yozish malakalarini egallash samaradorligiga va ularni maktab ta’limiga tayyorlashga yordam beradi.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlar Nutqi rivojlanmagan bolalar bilan olib borilgan korreksion ta’sirning umumiyligi tizimiga maktabgacha yoshdagi Nutqi rivojlanmagan bolalarda diqqat jarayonlarini kompleks shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘ziga xos ta’lim modelini ishlab chiqish va joriy etish zaruriyatini ko‘rsatadi.

### **III BOB. Nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning diqqatini rivojlantirishda olib boriladigan korreksion ishlari.**

#### **3.1.Nutqi rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish tamoyillari**

Biz olib borgan izlanishlarimiz natijasida Nutqi rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishni quyidagi tamoyillar asosida olib borish maqsadga muvofiq bo‘lishini aniqladik.

Korreksiya va rivojlanishning birligi. Bu korreksion ishning zarurligi to‘g‘risida qaror faqat bola rivojlanishining ichki va tashqi shart sharoitlarini psixologik-pedagogik taxlil asosidagina qabul qilinadi, demak.

Rivojlanishda yosh va o‘ziga xoslikning birligi. Bu bolaga uning yoshiga qarab riqojlanishida individual yondoshishni bildiradi. Korreksion ish bola shaxsi shakllanishi uchun ketma-ket keladigan yosh bosqichlari axamiyatini tushunish, psixik rivojlanishning asosiy qonuniyalarini bilishni ko‘zda tutadi. Normal rivojlanishning yoshga ko‘ra oriyenterlari mavjud. Normal rivojlanish deganda bolaning yoshiga mos ravishda uyg‘un ruhiy rivojlanishi tushuniladi.

Har bir yoshning qimmatli ekanligiga shak-shubha yo‘q. Ontogenezning har bir bosqichini to‘laqonli yashab o‘tish u yoki bu yoshning rivojlanish imkoniyatlarini amalga oshirishni barcha tomonlarini ta’minlash uchun xal qiluvchi hisoblanadi. Lekin bunda har bir alohida bola uchun yosh rivojlanishning bosqichma-bosqichligi, bir tekis emasligi, “latent” davrlar mavjudligi , bunda rivojlanish yashirin tarzda o‘tadi va faqat ma’lum vaqtidan keyin namoyon bo‘ladi, bu davrning o‘tishi bolalarda turlicha bo‘ladi. Shuning uchun korreksion ish normal rivojlanish normasiga yo‘naltirilgan bo‘lishi va o‘z oldiga har bir bolani aynan shu davrning o‘zida shu yo‘nalishda rivojlanirishni maqsad qilib qo‘ymasligi kerak.

Rivojlanishni korreksiyalashning birligi. Korreksion ishning vazifalari faqat to‘liq diagnozlash va rivojlanirishning eng yaqin prognozlarini baholash asosidagina qo‘yilishi va tushunarli bo‘lishi mumkin. Bu bolaning eng yaqin rivojlanish zonasidan kelib chiqib belgilanadi. Korretsiya va rivojlanirish o‘zaro

bir-biri bilan bog‘liq. Psixologik koreksiya vazifalarini hal qilishga yo‘naltirilgan faoliyatni diagnostik korreksion yoki diagnostik-rivojlaniruvchi ish deb aytish mumkin.

D.B.Elkonin maxsus diagnostika zarurligini va bolalarni tanlab olishga emas, balki ularning ruhiy rivojlanishidagi aniqlanadigan nuqsonlarni to‘g‘rilash maqsadida nazorat qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan.

U ta’kidlaganidek, paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan nuqsonlarni imkon qadar ertaroq to‘g‘irlash uchun rivojlanish jarayonini juda jiddiy nazorat qilish zarur.

Psixodiagnostika bolalarning individual va psixologik xususiyatlari, kichik maktab yoshidagi bolalarning o‘qishdagi qiyinchiliklari, bolalardagi individual farqlarning yosh dinamikasi. Shu jumladan jinsiy dimorfizmning namoyon bo‘lishi to‘g‘risida axborot olish imkonini beradi.

Ontogenetda rivojlanish murakkab tizimli harakterga ega. Diagnostik tekshiruv aynan shu sabab-oqibat aloqalarining yaxlit tizimli ko‘rinishini , ayrim buzilishlarning aniqlangan belgilari, og‘ishishlar va ularning sabablari o‘rtasidagi mohiyat munosabatlarini ochib berish imkonini beradi.

Psixologik diagnoz faqat psixologik tekshiruvlar asosida o‘tkazilmay, balki olingan ma’lumotlarni aniqlangan xususiyatlar hayotiy vaziyatlarda qanday namoyon bo‘lishi bilan taqqoslashni ko‘zda tutadi psixologik diagnozni qo‘yishda olingan ma’lumotlarni muayyan bolaning eng yaqin rivojlanish zonasini hisobga olgan holda yosh bo‘yicha taxlil qilish katta axamiyatga ega.

Korreksiyani amalga oshirish jarayonida turli faoliyatlarga tayanilsa, bu tamoyil quyidagi maqsadga erishishning vositalari, yo‘llari va usullarini belgilab beradi. Faoliyat tamoyili bolani o‘zining aynan faol faoliyatini rivojlanirishning harakatlantiruvchi kuchi ekanligini, har bir bosqichida ontogenezning ushbu davrida bolaning rivojlanishiga eng ko‘p yordam beradigan yetakchi faoliyat mavjudligini, har qanday inson faoliyatini (bizning xolatda o‘yin va o‘qishning) rivojlanishi maxsus shakllantirishni talab etishini tan olishga asoslangan (A.N.Leontev, D.Ya.Galperin, S.L.Rubinshteyn va boshqalar).

Bu tamoyil bolaning o‘zining kattalar bilan xamkorlikdagi faoliyatining tegishli turlarini tashkil etish orqali psixologik pedagogik ish olib borishni ko‘zda tutadi. Masalan, o‘quv faoliyatida bolaning qiziquvchanlik, intiluvchanlik, bilim va kashfiyotlarini bilishga, qidirishga chanqoqligiga asoslangan o‘z faolligi muvafaqiyatga olib keladi. Maktabda bunday faollikni uyg‘otish oson ish emas, lekin usiz xech qanday rivojlanish to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas. Bolaga nisbatan kuch ishlatib, buyruqlar yoki ko‘rsatmalar berib, ta’nalar qilib uni qobiliyatini rivojlantirib, muvafaqiyatlarga erishib bo‘lmaydi. O‘quv jarayonini o‘qish-bilish faoliyatida bolaning o‘z faolligini rivojlantirish imkoniyatlarini ko‘zda tutadigan o‘qish shart- sharoitlarini o‘zgartirish yo‘li bilan korreksiyalash zarur.

Barcha bolalarga tabiatan rivojlanish qonuniyati: atrof dunyonи xis qilish va idrok etish, o‘ylash, gapirish, muloxaza yuritish, tasavvur etish, eslab qolish, hoxlash, xis qilish, qayg‘urish, zo‘r berish, erishish va boshqa qobiliyatlar ato etilgan bo‘ladi. Lekin bu qobiliyatlarni bola tug‘ilgan vaqtidan boshlab rivojlantirib borish kerak. Bolalar bog‘chasida va maktabda kattalarning koreksion xarakatlari bolalarni tarbiyalanishi va o‘qishi uchun aynan shunday sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarurki, bu sharoitlar bola xayotining oldingi yillardagi rivojlanishida yuzaga kelgan kamchiliklar va xatolarni bartaraf etishga yordam bersin.

Korreksion ish olib borishda har bir bolaga iqtidorli bola sifatida yondoshish. Bu tamoyil shuni bildiradiki, psixo-korreksion ish olib borilayotgan bolalarni “ikinchи” sortli bolalar deb qabul qilmaslik kerak. Bunday bolalar na marxamat qilish, na shavqat va na o‘qitishning umumiy darajasini pasaytirishni, balki o‘z rivojlanishlarini optimal normagacha korreksiya qilishni talab etadilar.

Bola kattalar unga ishonishini, uni borgansari yanada qiyofamda sevadigan muammolarni hal qilishga jalb qilishayotganini xis qilgan xoldagina bolada rivojlanishning xarakatlantiruvchi kuchlarini safarbar etish yuz beradi. M.M.Pirishvining juda ajoyib bir gapi bor: “Sen mening qiyofamda sevadigan

kishi, mening o‘zimdan ko‘ra ancha yaxshiroq: men unday emasman. Lekin sen meni sev, va men o‘zimdan ko‘ra yaxshiroq bo‘lishga harakat qilaman”

Ham umumiy ham maxsus qobiliyatlarni shakllantirish-juda murakkab jarayon bo‘lib, bolaning har bir yosh davrida o‘ziga xos xususiyatlariga ega va bola qiziqishlarining rivojlanishi uning u yoki bu faoliyatidagi muvafaqiyatlarini o‘zi tomonidan baholanishi bilan uzviyravishda bog‘liq bo‘ladi. Shakllantirilmagan qobiliyat va qiziqishlar shaxsning yetarlicha rivojlanmasligiga olib keladi. Bolaning qobiliyatlari va qiziqishlarini rivojlantirishdagi kamchiliklarni korreksiya qilish-psixologik-pedagogik ishning muxim yo‘nalishidir.

Nutqi rivojlanmagan bolalarga to‘g‘ri korreksion ta’sirni tanlash, logopedik ishning samarasini ko‘rish uchun bolani psixolog va pedagogik o‘rganish katta axamiyat kasb etadi. Logopedik ish amalda psixologo-pedagogik o‘rganishdan boshlanadi, bu ish davomida foydalaniladigan vosita va yo‘llarni tanlashga va ish samarasini oshirishga yordam beradi va o‘rgangandan so‘ng tavsiyalar berishga yordam beradi.

Nutqi rivojlanmagan bolalar diqqat-e’tiborini korrektiyalash bo‘yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqishda quyidagi tamoyillar va nazariy qoidalar asos qilib olingan edi:

1. Nuqsonlar (buzilishlar) etiologiyasi, mexanizmlari va tuzilmasini hisobga olish tamoyili. Qayd qiluvchi eksperiment natijalarining tahlili bolalarda diqqat-e’tibor nuqsonlari murakkab tuzilmasini, Nutqi rivojlanmagan bolalarda nuqsonlarning bir xil emasligini aniqladi. Shunga ko‘ra, diqqat-e’tiborni shakllantirish metodlari va usullarini tanlashda har bir bola diqqat-e’tibori u yoki bu xususiyatlarining o‘ziga xos rivojlanishi hamda kognitiv va shaxsiy bolalar xususiyatlari ko‘rinishlarini hisobga olish lozim.

2. Kompekslilik va tizimlilik tamoyili. Ruhiyatni to’liq ko‘rib chiqish zarurligini o‘z vaqtida L.S.Vigotskiy ham ko‘rsatib o’tgan. U bolaning ruhiy rivojlanishi jarayonida ayrim ruhiy vazifalar (idrok qilish, xotira, diqqat-e’tibor, fikrlash) o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlagan. Shunga ko‘ra, bir tarafdan, korreksion- rivojlantiruvchi ishni olib borishda idrok qilish, xotira, diqqat-e’tibor,

fikrlash va nutq rivojlanishidagi chambarchas bog'liqlikni hisobga olish zarur. Boshqa tarafdan, diqqat-e'tibor nuqsonlari korreksiyasi shakllanib bo'lgan kognitiv vazifalarga tayangan holda olib borilishi kerak.

3. Faoliyatli yondashish tamoyili. Qayd qilish eksperimenti ma'lumotlariga ko'ra, Nutqi rivojlanmagan bolalarda umuman ixtiyoriy diqqat-e'tibor hamda uning ayrim xususiyatlarida turli xil kamchiliklar belgilangan. Bundan tashqari, o'z-o'zini nazorat qilish, tavsiya qilinadigan topshiriqlarni bajarishga qiziqish va oxirgi natijaga qiziquvchanlikning yetishmasligi yoki yo'qligi belgilangan edi. Aniqlangan xususiyat diqqat-e'tiborning turli xil xususiyatlari bilan bir qatorda hissiy sohaning shakllanishi va o'z faoliyatini nazorat qilish ko'nikmalarining shakllanishi kerakligi zaruriyatini shartlaydi. Shunday qilib, eksperimental o'qitish jarayonida topshiriqlarni bajarishda yuzaga kelgan qiziqishga katta ahamiyat berish lozim, bunga ko'p sonli ko'rgazmali quollar, o'yin usullari, ayniqsa ishning boshlang'ich bosqichida bola uchun ahamiyatli bo'lgan o'yinli, real vaziyatlardan foydalanish orqali erishiladi.

4. Diqqat-e'tiborni egallash jarayoni psixologik tuzilmasini hisobga olish. Nutqi rivojlanmagan bolalarda diqqat-e'tibor korreksiyasi shakllanishi yo'llari va metodlarini tanlashda shundan kelib chiqish kerakki, bolaning diqqat-e'tibori turli xil faoliyat (predmetli, o'yinli) jarayonida shakllanadi.

5. Korreksion va rivojlantiruvchi o'qitish birligi tamoyili. Diqqat-e'tiborning shakllanishini duduqlanishning majmuali korreksiyasi va bolalarda oliy ruhiy vazifalarning rivojlanishi jarayonida amalga oshirish zarur. Bundan tashqari, diqqat-e'tiborning shakllanishini quyidagi masalalarni hal etish bilan bиргаликда amalga oshirish zarur: shaxsiy bola xislatlarini rivojlantirish; kommunikativ qobiliyat va ko'nikmalarni rivojlantirish; ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlab chiqish, saqlash va foydalanish, mакtab yoshiga yetmagan bolalarning emotSIONAL sohasini rivojlantirishga bo'lgan qobiliyatlarni takomillashtirish.

6. Individual differensial yondashish bolalarning individual xususiyatlari (aql darajasi, fikrlash faoliyati maromi va b.), ularning ruhiy nuqsoni xususiyatlariga tayanishni ko'zda tutadi. Bundan tashqari, ayrim diqqat-e'tibor

xususiyatlari rivojlanishi o'zaro bog'liqligida va umuman qayd qiluvchi eksperiment borishida aniqlangan diqqat-e'tiborning shakllanganligi darajasida maktab yoshiga yetmagan bolalar guruhi ichidagi farqlanishlarni hisobga olish lozim. Shunga ko'ra, korreksion ish jarayonida quyidagi masalalarni hal etish zarur:

1. Korreksion- rivojlantiruvchi mashg'ulotlar va bilish xususiyatiga ega topshiriqlarga bo'lgan motivatsiya va qiziqishni ishlab chiqish;
2. Bolalarni qiyinchiliklarni bartaraf etish va murakkab vaziyatdan chiqib ketishga o'rgatish;
3. Bolalarda o'z-o'zini nazorat qilish va xatolarni mustaqil to'g'rilashga ko'nikmalarni shakllantirish;
4. Diqqat-e'tiborning turg'unligi, ishnioxiriga yetkazishga intilishni rivojlantirish.

### **3.2. Nutqi rivojlanmagan bolalar diqqatini rivojlantirish yo'llari**

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega ega bo'lgan bolalar diqqati rivojlanishini tekshirish jarayonida shu narsa aniqlandiki, bunday bolalarning deyarli barchasida diqqat jarayonlari: ko'lami, taqsimlanishi, ko'chishi, barqarorligining rivojlanishida ortda qolishi kuzatiladi.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bolalardagi diqqati rivojlanishidagi kamchiliklarni turli mashqlar va o'yinlar asosida bartaraf etish samarali kechadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni psixologik tekshirishning maqsadi- bolaning ruhiy rivojlanishi hamda psixik funksiyalarining holatiga baho berishdir.<sup>14</sup>

Diqqatning asosiy sifatlaridan uning hajmi, bir joyda to'planishi (bir nuqtaga to'planish kuchi), mustahkamligi (bir nuqtaga to'planishning davomiyligi), topqirlik qobiliyati, diqqatning faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi hamda bir turdan ikkinchisiga o'tishi hisoblanadi. Diqqatning hajmi

---

<sup>14</sup>Миронова С.А .Развитие речи дошкольников на логопедических занятиях. - М.: "Просвещение", 1991

insonning bir vaqtning o’zida bir xil yaqqollikda “qamrab olinishi” mumkin bo’lgan ob’yektlar sonidir. Agarda stolning ustiga tanish bo’lgan 10-12 ta o’chirg’ich, qalam, tangalarni va shunga o’xhash predmetlarni yoyib qo’yib, so’ng 5-10 soniyaga ochib, so’ng predmetlar yopilsa, odatda kattalar 6-7 ta narsalarni anglab oladilar. Agarda bu predmetlar tanish bo’lmasa yoki ular bir-birlariga juda yaqin joylashtirilgan bo’lsa, yoki katta maydonda bo’lib-bo’lib qo’ylgan bo’lsa, diqqatning hajmi tezda qisqaradi. Bolada diqqatning hajmi sezilarli darajada qisqadir. Shuning uchun, agarda bolaga ikkita bir- biriga o’xhash rasmlar yoki rasmlar mazmuni bo’yicha yaqin she’rni berib tanishb chiqish tavsiy etilsa, idrok qilinmayotgan obyektlarda “bo’shliq” paydo bo’ladi. Bunday holatda bolaga ta’lim- tarbiya jarayonida taqqoslash ko’nimalarini shakllantirishga yordam beruvchi mashq va vazifalarni kiritish lozim. Bunday holatda bolada diqqat hajmi va bir joyga to’planishi shakllanadi. Bu bosqichda bolalarni materiallar bilan tanishtirish ularning aqliy rivojlanish imkoniyatlari asosida amalga oshiriladi. Ko’p hollarda bolalarda parishonxotirlikning sabablari ularda diqqatning moslashuvchan emasligi yoki uning yuqori emotSIONAL holatiga ko’ra uning bir faoliyat turidan (yoki obyektdan) ikkinchisiga o’tishda lozim bo’lgan moslashuvchanlikning yo’qligi bo’lishi mumkin. Bolalarning bajarishi lozim bo’lgan ishni uddalamaganligi uchun jazolanishdan qo’rqishi, o’ziga ishonchsizlik kattalarning bolaga noto’g’ri pedagogik munosabati natijasida yuzaga kelgan emotSIONAL holatdir. Shuni nazarda tutish lozimki, pedagog o’zinng hatti-harakati bilan bolaning o’z diqqatini bir joyga to’planishiga yordam berishi yoki aksincha, unga halaqit berishi mumkin. 4-5 yoshdan to 10-12 yoshdagи bolalarga ta’lim-tarbiya berishda, qandaydir qo’shimcha, pedagog tomonidan baland ovozda “yetib olish uchun” beriladigan (“Ikkita katak tashlash esingdan chiqmasin” va boshqa) vazifalar berish bilan to’xtatish mumkin emas. Ular bolalarning nozik diqqatini jarohatlaydi, ularni boshlagan ishidan chalg’itadilar. Lozim bo’lgan hollarda bolaga individual tartibda, chiroyli shaklda tanbeh berish mumkin. Shuningdek, bolalar uchun faollik, o’yin, ijoddagi tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun, ularda bo’sh vaqt ni bo’lishi uchun imkoniyat yaratish zarur.

Psixolog bolada korreksion mashg'ulotlar olib borishda bola bilan yaxshi munosabatda bo'lishi, mashg'ulot davomida bolani kayfiyatini ko'tarib, uni maqtab yaxshi so'zlarni aytishi kerak. Logoped mashg'ulot o'tkazishdan oldin bolaning anamnezi, bolaning daftarlari, chizgan rasmlari, psixologik xarakteristikasi, tibbiy tekshirishlar: eshitishi, ko'rvu apparati, tayanch- harakat apparati, bolaning nutqiy holati bilan tanish bo'lган holda to'g'ri mashg'ulot olib boradi.

Ota- ona bilan suhbat davomida psixolog, defektolog bir qancha ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ota- ona farzandi bilan har kuni muloqotda bo'lганligi uchun farzandini yaxshi biladilar, shu bois birga suhbat davomida psixolog ularning bolaga bo'lган munosabatini bilib oladi. Psixolog bola bilan alohida suhbatlashayotganda savollarni uning yoshiga moslab, individual xususiyatlarini inobatga olgan holda berishi kerak. Diqqatni rivojlantirishda psixolog avval bolada diqqatning buzilishi mavjudligini aniqlashi lozim. So'ngra bu buzilishlarning namoyon bo'lish darajasini, faoliyat jarayoni va faoliyat natijasiga qanchalik ta'sir etganligiga e'tibor qaratish lozim. Ko'pincha, diqqatning qo'pol bo'lмаган buzilishlari ishning natijalarida aks etmasada, shunga qaramayularning mavjudligi ko'pincha klinik holatlarning tashxis belgisi sifatida ahamiyatga ega bo'ladi.

Diqqatning qo'pol buzilishlari kuzatilganda ular boladagi qiyinchilikning asosiy sababi ekanligini yoki ular xarakterining ko'rinishlariga kirishini aniqlash zarur. Diqqatidagi kamchiliklar boshqa psixik funksiyalari faoliyatiga, ayniqsa, xotira faoliyatiga ta'sirini bilish lozim. Diqqatning qo'pol buzilishlarida xotirani tekshirish ko'pincha noto'g'ri hisoblanadi, chunki uning natijalari xotiraning buzilishlarini emas, eslab qolish vaqtida diqqatdagi kamchiliklardan dalolat beradi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni asosiy faoliyati bu o'yindir. Har qanday o'yin turlari, o'yin elementlari nutqida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarni barcha bosqichlarida foydalaniladi. O'yin faoliyatidan keng foydalanish o'yin orqali bolaga har tomonlama ta'sir etishdir. Bolalarda nutqning to'liq shakllanishi va rivojlanishi uchun mashg'ulotlarda logopedik o'yinlardan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Duduqlanish nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar diqqatini rivojlantirishda quyidagi o'yinlar tavsiya etiladi:

O'yin nomi: "Quyosh va yomg'ir" (Bolalarda eshituv diqqatini ma'lum bir buyum ovoziga ko'chira olish qobilyatini tarbiyalash)

Tarbiyachi ikkita rasm tanlaydi, birinchi rasmda quyosh charaqlab turibdi, bolalar sayr qilishyabdi. Ikkinci rasmda esa yomg'ir yog'ayapti, bolalar pana joyga chopishyabdilar. Tarbiyachi bolalarga "Hozir bz sizlar bilan sayrga boramiz. Biz sayrga chiqdik, lekin yomgir yo'q, ob-havo yaxshi, quyosh charaqlab turibdi. Gullar terish mumkin. Sizlar sayr qilinglar. Men esa doira chalaman. Doira sadosida sayr qilish qiziqarli bo'ladi. Agar yomg'ir boshlasa men doirani cherta boshlayman, sizlar esa doirani taqillashini eshtib, uylaringizga yugurishingiz kerak. Diqqat bilan tinglang men doirani qachon chalaman, qachon taqillata boshlayman" Tarbiyachi bu o'yinni doirani ovozini o'zgartirib uch - to'rt marta takrorlaydi.

O'yin nomi: "Barmoqlar" (diqqatning ko'chishini rivojlantirish)

O'quvchilar doira shaklida stullarga qulay o'tiradilar. Ular qo'llarini, barmoqlarini

«zanjir» tarzida ushlaydilar. Bosh barmoq «bo`sh» qoladi. Asta-sekin bosh barmoq aylana boshlaydi. «To`xtang» komandasini bilan to`xtaladi. Bu mashq 5-15 daqiqa davom etadi. Undan keyingi qiyinchiliklar boladagi kamchiliklarni ko`rsatadi.

O'yin nomi: «Pashsha» (doimiy diqqatni rivojlantirish)

Doska olinib, 9 ta katak chiziladi va plastilin yopishtiriladi. Plastilin pashsha rolini o`ynaydi. Pasha o`ngga-chapga, tepaga-pastga buyruqlari bilan yuradi. O'quvchilar uni doskadan tashqariga chiqarmasliklari kerak.

O'yin nomi: "Selektor"

Mashqda bir bola tanlanadi. Unga galma-galdan sonlar aytiladi. U bu sonlarni qaytarishi kerak. Hammasini qaytarib bo`lgach, gal keyingi ishtirokchiga o'tadi. Shu tarzda o'quvchilar ishtirok etadi.

O'yin nomi: "O`ta diqqatlilik"

Ishtirokchilar 2 guruhga ajratiladi: Birinchi guruh “Xalaqit beruvchilar” va ikkinchi guruh “Diqqat- e’tiborlilar” guruhi. Diqqat- e’tiborlilarga biror hayvon harakatlarini o`xshatib berish so`raladi. Xalaqit beruvchilar esa ularning diqqatini boshqa narsalarga chalg`itishi kerak.

O`yin nomi: “Top, nima qichqiryapti? ” (Bolalarda eshituv diqqatini to’play olish malakasini hosil qilish)

Logoped oldindan tayyorlab qo’yan o’yinchog’ini bittadan olib, uni bolalarga ko’rsatadi, ovoziga taqlid qiladi va bolalardan bu qaysi hayvonning ovozi ekanligini so’raydi. Navbatdagi o’ynchoqni bolalarga yashiringan joydan olib ko’rsatishdan oldin ovozini qilib ko’rsatadi va bolalardan “topchi, hozir bizga qaysi hayvon mehmon bo’lib keladi?” deb so’raydi. So’ngra logoped bir bolaga boshqa xonaga o’tib eshigini qiya ochib qo’yan holda biron bir hayvonning ovoziga taqlid qilishini aytadi, boshqa bolalar esa u qaysi hayvonning ovozi ekanligini topadilar. Topshiriqni 5-6 marta takrorlash mumkin. Bolalarning diqqat bilan eshitishlarini kuzatib borish kerak. Barcha bolalarni savollar berib faollashtirish kerak.

O`yin nomi: “Qayerda chalindi?” (Eshituv diqqatiga yo’naltirishni rivojlantirish) Logoped qo’g’irchoq tayyorlab qo’yadi. Bolalar aylana shaklida o’tiradilar. Tarbiyachi va logoped mashg’ulot boshlovchisini tanlaydi. Boshlovchi o’rtada turadi. Tarbiyachining signali bilan boshlovchi ko’zini yumadi. Shu vaqt logoped bolalardan birontasiga qo’ng’iroqni beradi va chalishni taklif etadi. Boshlovchi ko’zini ochmay, qo’ng’iroq ovozi kelayotgan tomonni qo’li bilan ko’rsatadi. Agar bola ovoz kelayotgan tomonni to’g’ri ko’rsatsa, logoped “bo’ldi” deb aytadi va mashg’ulot boshlovchisi ko’zini ochadi. Qo’ng’iroqni chalgan bola esa qo’ng’iroqni yuqoriga ko’tarib, uni ko’rsatadi. Agar o’yinda boshlovchi adashsa, yana bir marta qo’ng’iroq ovozi qayerdan kelayotganini topish taklif etiladi, keyin boshqa boshlovchi tayinlanadi. Topshiriq 4-5 marta takrorlanadi. Mashg’ulotda boshlovchi o`yin vaqtida ko’zini ochmasligi kerak, buni kuzatib borish lozim. O’yinda boshlovchi tovush kelayotgan tomonni qo’li bilan ko’rsatib shu tomonga burilishi kerak, qo’ng’iroqni juda baland chalish kerak emas.

O'yin nomi: "Narsalarni taqqoslang" (ko'rvuv idrokini rivojlantirish)

Bu metodika diqqatni rivojlantirishga qaratilgan. Bolaning oldiga ikkita o'yinchoq qo'yiladi. Bola avval ular nimasi bilan bir-biriga o'xshashligini, keyin o'zaro farqini topib aytib berishi kerak. Masalan, ayiq va quyoncha bir-biriga yumshoqligi bilan o'xshaydi. Ularning qo'l- oyoqlari, ko'z, quloqlari bor. Farqi shundaki, ayiq katta, quyon kichkina. Ayiq jigarrang, quyon oq rang va hokazo. Belgilarni bolalar bilan galma- galdan aytish mumkin. Shu tarzda har qanday juft o'yinchoqlarni taqqoslash mumkin.

O'yin nomi: "O'xshashini top" (ko'rvuv diqqatini rivojlantirish)

Bu o'yin diqqatni rivojlantirishga qaratilgan. Bolaga 4-6ta sharcha orasidan siz tasvirlaganingizni (rangi, kattaligi) ajratib berish taklif etiladi.

O'yin nomi: "Xatosini top" (ko'rvuv diqqati va mantiqiy fikrlashni rivojlantrish)

Bu o'yinni o'tkazish uchun oldindan 5-6ta xatosi bo'lgan rasm chizib qo'yiladi. Masalan, qish faslida yengil oyoq kiyimda o'ynab yurgan o'g'il bolalar, qo'lida savatcha bilan qo'ziqorin terib yurgan qiz bolalar holda tasvirlangan bo'lishi mumkin. Albatta, surat mazmuni va xatolar tushunarli bo'lishi lozim. Metodikani murakkablashtirish uchun xatolar sonini ko'paytirish lozim, Xatolarni bola uchun sezilishi qiyin qilib tasvirlash lozim.

Shuningdek, Nutqi rivojlanmagan bolalar diqqat kamchiliklarini bartaraf etishda aynan korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulot ishlanmalarini tavsiya etish mumkin.

Mashg'ulot ishlanmali Nutqi rivojlanmagan bolalar rivojlanishi darjasи, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan maxsus tashkil qilingan korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar sseriyasidan iborat. Mashg'ulot ishlanmali barcha ixtiyoriy diqqat-e'tibor xususiyatlarining rivojlanishiga qaratilgan o'yin va mashqlar majmuasini o'zida mujassam etadi. Barcha mashqlarda bolalar diqqat-e'tiborining faol shakllanishi amalga oshadigan o'yinli harakatlarga duch keladi. Mashg'ulotlarda ta'riflangan topshiriqlar diqqat-

e'tiborni boshqa yerga ko'chirish, taqsimlash, qaratish, hajmi rivojlanishi, ijobiy motivatsiya va o'z-o'zini nazorat qilish rivojlanishiga qaratilgan.

Mashg'ulotlarni o'tkazish shakli: individual-guruhgaoид.

Biz quyida diqqatni rivojlantirishga qaratilgan bir nechta mashg'ulot ishlanmalarini taklif etamiz.

### 1-mashg'ulot

#### I. Kirish qismi

"Nimani ko'ryabmiz" o'yini

Kerakli jihozlar: turli xil o'yinchoqlar

O'yinning borishi: stolga bir necha predmetlar qo'yilgan. (Rangli kartochkalar, geometrik figuralar, o'yinchoqlar.) Predmetlar ustiga sochiq yopib qo'yilgan. Tarbiyachi bolalardan so'raydi: "Sochiq ostida nima borligini qanday aniqlashimiz mumkin? Uning ostida nima bor deb o'ylaysiz? "Bolalarning javoblarini tinglagach, sochiqni olib uning ostida nima borligini ko'rsatadi.

#### II. Asosiy qism

##### 1-topshiriq.

Maqsad: diqqatni bir vaqtning o'zida bir necha ob'yeiktga taqsimlanishini mashq qilish

Kerakli jihozlar: bir nechta o'yinchoqlar

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: stol ustiga bir nechta o'yinchoqlar qo'yiladi va bolalardan 1-2 daqiqa ularga qarab olish taklif etiladi. so'ng bolalar o'yinchoqlarga teskari qarab o'tirishadi. O'yinchoqlar orasidan biror o'yinchoq olib qo'yiladi. Bolalar yana o'yinchoqlarga qarab o'tirishadi va ulardan qaysi o'yinchoq yetishmayotganini topish so'raladi. Topshiriq bir necha marta tarorlanadi.

##### 2-topshiriq.

Maqsad: diqqatning bir vaqtning o'zida bir necha obyektga taqsimlanishini mashq qilish

Kerakli jihozlar: o'tirgan, turgan yotgan, qo'lini tepaga, yonga, qilgan holatdagi odam rasmlari

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: bolaga qog'ozda tasvirlangan odam holatlariga e'tibor bilan qarash taklif etiladi. rasmlar orasidan masalan, "qo'lini ko'tarib turgan holatdagi odam rasmini top" deyiladi va bola bu rasmni qanday topganini so'raladi.

### 3-topshiriq

Maqsad: diqqatning taqsimlanishini rivojlantirish

Kerakli jihozlar: predmetli rasmlar, bir-biridan belglari bilan katta farq qiladigan 2ta bir xil rasm, masalan, 2 xil turli rangdagi bir xil archa rasmi

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: bolaga rasmlardagi bir-biridan farq qiluvchi belgilarini sanash taklif etiladi. bolani ko'proq belgilarini topishgaundash zarur.

### 2-mashg'ulot

#### I. Kirish qismi

"E'tiborli bo'l" o'yini

O'yining borishi: bolalar turli hayvonlar harakatlarini o'xshatib ko'rsatib berishi zarur

Quyon (sakrash)

Ot (chopish)

Qush (qo'llar bilan harakat qilish)

#### II. Asosiy qism

##### 1-topshiriq

Maqsad: bolalar diqqatini bir necha obyektga to'plashni mashq qilish

Kerakli jihozlar: turli ko'rinishdagi kapalak rasmlari

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: tarbiyachi bolaga faqat bir xil kapalaklarni topishni taklif etadi.

##### 2-topshiriq

Maqsad: bolalarni diqqatini bir necha obyektga to'plashva eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish

Kerakli jihozlar: qator bo'yicha qo'yilgan va qog'oz bilan berkitilgan 7 ta predmetli rasmlar

#### I. Qism.

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi: qog’ozlar bilan berkitilgan rasmlarni olib, ularni 10-15 soniya qarab olish taklif etiladi. So’ng rasmlar yana qog’oz bilan berkitiladi. Tarbiyachi bolalardan qog’oz tagida qanday rasm borligini so’raydi.

## II. Qism

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi: qog’oz bilan berkitilgan rasmlar ochiladi va bolalar 10 soniya qarab olishlari kerak. Vaqt o’tgach rasmlar yana berkitilib rasmlar ketma- ketligi so’raladi.

## III. Qism

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi: qatordagi berigan rasmlardan 2-3 ta rasm joylari o’zgartiriladi va bolalardan ularning to’g’ri ketma- ketligi so’raladi.

## IV. Qism

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi: bolalardan qanday rangdagi predmet rasmlarini ko’rganliklari so’raladi

## V. Qism

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi: ketma- ket qo’yilgan 7 ta rasmga 10-20 sekund qarab olish taklif etiladi, ularni sanash va ularning yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga qarab nomlarini sanash so’raladi.

## VI. Qism

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi: 5-6ta turli holatdagi predmet: teskari turgan, suyangan holdagi rasmlarga 1-10 sekund qarab olish taklif etiladi . Vaqt o’tgach har bir predmet qanday holatda turganligi so’raladi

## III. Yakuniy qism

“Bo’ladi- bo’lmaydi” o’yini

Bolalarga bir nechta jumlalar o’qib eshittiriladi. (masalan, “Qish iyun oyida tugaydi”, “Olma yerda o’sadi”, “Qor oq rangda bo’ladi” va hokazo) Agar jumlalar rost bo’lsa bolalar qarsak chaladilar, yolg’on bo’lsa oyoqlarini taqillatadilar.

## 3-mashg’ulot

### I. Kirish qismi

“O’ylab ko’r” o’yini

Tarbiyachi bolalarga shunday deb murojaat qiladi: “Nima deb o’ylaysiz, mana bu qalamni necha marta yotqizib qo’yanimizda stolning uzunligga to’g’ri keladi?” bolalarning har bir javobi doskaga yozib qo’yiladi. So’ng o’lchab ko’riladi va to’g’ri javob aniqlanadi.

## II. Asosiy qism

### 1-topshiriq

Maqsad: diqqatning bir necha obyektga taqsimlanishini mashq qilish

Kerakli jihozlar: 2 ta jadval. Biriga 3 ta piyola va 4 ta kvadrat, ikkinchisiga 4 ta piyola va 3 ta kvadrat rasmi tushirlgan.

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi: bolalarga jadvallarni solishtirish va ulardagi bir xillik va har xillikni topish taklif etiladi.

### 2-topshiriq

Maqsad: diqqatning ko’chishini rivojlantirish

Kerakli jihozlar: qumli soat, qismlarga bo’lingan kartondan kesilgan kvadrat

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi: bolaga oldin 3ta bo’lakka bo’lingan kvadratni butun qilib yasab berish, so’ng 4 bo’lakka bo’lingan kvadratni butun qilib yasab berish so’raladi. Tarbiyachi vaqtini kuzatib borishi kerak. Bolada qiyinchiliktug’ilsa, muvaffaqiyatga erishguncha urinib ko’rishi mumkin

### 3-topshiriq

Maqsad: diqqatning to’planishini mashq qilish

Kerakli jihozlar: predmetli rasmlar

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi: bolaga 6-7 ta predmetli rasmlar ketma-ketligi ko’rasatiladi. Tarbiyachi oldin 1ta, so’ng 2 ta, so’ng 3 ta rasmlar joyini o’zgatirib bolalardan nima o’zgorganini so’raydi. Yakunida hech bir rasm o’rni o’zgartirilmagan holda ko’rsatiladi. Bolalar rasmlarda qayerda ketma-ketlik buzilganini aniqlashlari kerak.

## III. Yakuniy qism

Bolalarga quyidagi savollar beriladi: “Bugun nima haqida suhbatlashdik? “Sizlarga nima yoqdi va yoqmadi? Nima uchun?” va hokazo

## 4-mashg'ulot

### I. Kirish qismi

“Kim ko’proq” o’yini

Bolalarga biror predmet ko’rsatiladi. Bolalar esa uning xususiyatlarini aytadilar. (rangi, o’lchami, shakli, tarkibi, vazifasi va hokazo) Bolalardan ko’proq xususiyatlarini topish talab qilnadi

1. Chizg’ich

2. Non

3. Qo’l

4. Kitob

### II. Asosiy qism

1-topshiriq

Maqsad: diqqatning ko’chishini mashq qilish

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi: tarbiyachi 5 xil harakatni takrorlaydi, lekin harakatlarni ko’rsatmaydi. So’ng bolaga shu ketma- ketlik bo’yicha harakatlarni ko’rsatib berishni so’raydi.

2-topshiriq

Maqsad: diqqatning to’planishini mashq qilish

Kerakli jihozlar: 4-6ta predmetli rasmlar

Mashg’ulotni o’tkazish tartibi: bolaga rasmlar orasidan xuddi tarbiyachi qo’lida turgan (masalan uy rasmi) rasmni topish so’raladi.

### III. Yakuniy qism

Bolalar birma bir guruhdan chiqib ketishadi.

Yuqorida berilgan mashg’ulot ishlanmalaridan diqqaning ko’chishi, barqarorligi, samaradorligi, taqsimlanishi kabi xususiyatlarni rivojlantirishda foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi.

### **III bob bo‘yicha xulosa**

Nutqi rivojlanmagan bolalarning diqqatini rivojlantirish ularning bilish faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Diqqatning buzilishlari kuzatilganda ular boladagi qiyinchilikning asosiy sababi ekanligini yoki ular xarakterining ko’rinishlariga kirishini aniqlash zarur. Eksperimental tadqiqotda aniqlanganidek, Nutqi rivojlanmagan mактабгача tarbiya yoshidagi bolalarda diqqat jarayonlarining rivojlanishida kamchiliklar mavjud. Demak, mактабгача tarbiya yoshidagi bolalarda imkon qadar bir ob’yektga bo’lgan diqqat- e’tiborini uzoq ushlab turish, bir ob’yektdan boshqa obyektga diqqat-e’tiborini tezda ko’chirish qobiliyatini rivojlantirish, o’z diqqat e’tiborini ongli ravishda qo’yilgan maqsadga bo’ysundira olish va predmet va hodisalarga sezilarli bo’lmagan, lekin muhim bo’lgan xossalarni belgilay olishga o’rgatish zarur.

Nutqi rivojlanmagan bolalarning diqqati rivojlanishida kuzatilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun aniq maqsadga qaratilgan korreksion ishlar tashkil etish, mashg’ulotlar, o’yinlarni tashkil etish va bu jarayonda ularning o’ziga xos jihatlarini e’tiborga olish samarali bo’ladi.

Tavsiya etilgan o’yinlar va mashg’ulot ishlanmalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi.

## **Umumiy xulosa**

Tadqiqot maktabgacha yoshdagi Nutqi rivojlanmagan bolalarda diqqat jarayonlarining shakllanish muammosining dolzarbligi va ahamiyatini isbotladi.

Nutqi rivojlanmagan bolalarda diqatning shakllanish muammosini tekshirish natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

1. Tadqiqot muammosiga doir adabiyotlar tahlili tizimli yondashuv nuqtai nazaridan Nutqi rivojlanmagan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida zamonaviy tasavvurlarni to‘ldirishga imkon berdi. Tahlil davomida maktabgacha yoshdagi Nutqi rivojlanmagan bolalarda nutqiy va nutqiy bo‘lmagan buzilishlarning bir turda emasligi haqidagi ma’lumotlar aniqlashtirildi. Maktabgacha yoshda diqqat bolaning bilish va nutqiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bolalarda nutqning to‘liq rivojlanmaganligi tizimida diqqatni rivojlantirish muammosiga doir adabiyot manbalarining tahlili diqqatning nutqi rivojlanmagan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish dinamikasiga ta’sirini aniqlash imkonini berdi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi Nutqi rivojlanmagan bolalar bilan korreksion ta’sir tizimida diqqatni rivojlantirishga doir ish egallashi kerak.

Individual differensial yondashuv nuqtai nazaridan diqqat jarayonlarni takomillashtirish va nutqni rivojlantirishga doir ishda maktabgacha ta’lim muassasasi logopedik guruhlari mutaxassislarining o‘zaro hamkorlik modeli nazariy asoslandi.

2. Nutqi rivojlanmagan bolalar rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan diagnostik kompleks Nutqi rivojlanmagan bolalarda nutqiy rivojlanish bilan bog‘liq holda diqqat va uning buzilish mexanizmi xususiyatlari haqida qo‘srimcha ma’lumotlarni olish, nutqning to‘liq rivojlanmaganligi tizimida diqqat buzilishlarining mavjudligi haqidagi ma’lumotlarni isbotlash imkonini berdi.

3. Maktabgacha yoshdagi Nutqi rivojlanmagan bolalarda va ularning normal rivojlanayotgan tengdoshlarida diqqat jarayonlarni qiyosiy tekshirish maktabgacha

yoshdagi nutqi rivojlanmagan bolalarda diqqat kamchiliklarining sifat jihatidan o‘ziga xosligi va turli darajadagi xarakterini, logopedik ish davomida diqqat kamchiliklari va ularning bartaraf etishning dinamikasi namoyon bo‘lishini aniqladi.

4. Tadqiqot nafaqat diqqatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, balki logopedik ta’sir samaradorligini oshirish imkonini bergan diqqatini rivojlantirish usullarni qo‘llash yordamida maxsus ishlab chiqilgan logopedik ish metodikasini qo‘llashning maqsadga muvofiqligini tasdiqladi.

5. Katta maktabgacha yoshdagi nutqi rivojlanmagan bolalar bilan logopedik ishni takomillashtirishga ko‘maklashuvchi quyidagi pedagogik sharoitlar ishlab chiqildi va aprobatsiyadan o‘tkazildi:

- maxsus maktabgacha ta’lim muassasasinig korreksion rivojlantiruvchi jarayoniga bolalar diqqatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan komponentni kiritish;
- maktabgacha yoshdagi nutqi rivojlanmagan bolalarda diqqat faoliyatni rivojlantirishga doir logoped, psixolog va tarbiyachilarining o‘zaro faoliyatini ta’minlash;
- maktabgacha ta’lim muassasasi psixologining ishida bolada diqqat jarayonlarning shakllanganlik darajasini baholash imkonini beruvchi diagnostik usullardan foydalanish;
- logoped va psixolog faoliyatining mazmunini aniqlashda diqqat jarayonlarni tashxis etish natijalarini inobatga olish;
- logopedik ish va psixologik korreksiya davomida diqqatni rivojlantirishga individul-differensial yondashuvni amalga oshirish;
- bolalarda diqqatni rivojlantirishga doir mashg‘ulotlarni tashkil etishda psixologik test, metodikalar, o‘yinlar va predmet-amaliy faoliyatdan foydalanish.

Maktabgacha yoshdagi Nutqi rivojlanmagan bolalarda diqqat va nutqning rivojlanish dinamikasiga maxsus tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi ta’sir sharoitlaridagina erishish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I.O‘zbekiston Respublikasi Davlat qonunlari va dasturlari**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi / O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: “O‘zbekiston” 1992
2. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1997
3. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi Qonuni Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1997
4. Sog‘lom bola yili Davlat dasturi. T., 2014

### **II.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari**

1. Mirziyoyev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlashtirishga barpo etamiz” – T.: “O‘zbekiston” 2017
2. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz” – T.: “O‘zbekiston” 2017
3. Mirziyoyev SH.M. “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz” – T.: “O‘zbekiston” 2017

### **III.Asosiy adabiyotlar:**

5. Anufriev A.F., Kostromina S.N “Kak preodolet trudnosti v obuchenii detey. Psixodiagnosticheskie tablits. Psixodiagnosticheskie metodiki. Korrektsionne uprajneniya” 3 izd – M.: Izdatelstvo, 2003
6. Ayupova M.Yu. Logopediya. - T.: “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati”, 2007

7. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy o'gitlar –T., 1991.
8. Badalyan L.O. Detskaya nevropatologiya. – M.: Meditsina, 1994.
9. Bogdanova T.G., Kornilova T.V. Diagnostika poznavatelnoy sferi rebyonka. - M.: 1994
10. Baskakova I.L. Vnimaniya doshkolnika, metod yego izucheniya i razvitiya. Izucheniya vnimaniya shkolnikov. - M.: Izdatelstvo «Voronej: «MODEK», 1995
11. Burmenskaya G.V. Xrestomatiya po detskoy psixologii. – M., 1996
12. Vasileva N.N., Novotorseva N.V. Razvivayushchie igr dlya doshkolnikov: Populyarnoe posobie dlya roditeley i pedagogov. – Ya.: 1996
13. Vnimanie i pamyat. – M.: ZAO ROSMEN-PRESS, 2005
14. Vgotskiy L.S. Psixologiya i ucheniya o lokalizatsii psicheskix funktsiy / L.S. Vgotskiy // Soch. v 6-ti T.- M.: Pedagogika, 1982
15. Volkov B.S., Volkova N.V. detskaya psixologiya v voprosax i otvetax. – M., 2002
16. Grigoreva L.P. Psixofiziologiya razvitiya vnimaniya u detey v norme i so slojnimi sensornimi narusheniyami// Defektologiya. 2000. № 2
17. Gurovets G.V. Detskaya nevropatologiya. Yestestvenno – nauchne osnov spetsialnoy doshkolnoy psixologii i pedagogiki. – M.: Vlados, 2004
18. Garkusha Yu.F., Sistema korrektsionnx zanyatiy vospitatatelya v detskom sadu dlya detey s narusheniyami rechi. – M., 1992
19. Dormashev.B., Romanov V.E. Psixologiya vnimaniya. - M.: 1995
20. Diagnostika i korreksiya psicheskogo razvitiya doshkolnikov. Pod red. Kolomenskogo Ya.L, Panko Ye.A. – M.: 1997
21. Jukova N.S., Mastyukova Ye. M., Filicheva T.B. Logopediya: preodoleniy obshhego nedorazvitiya rechi u doshkolnikov. – Ye.: ARD LTD, 1999
22. Ilina M.V. Trenirem vnimaniya i pamyat. Testi i uprAjneniya dlya detey 5-7 let. – M.: ARKTI, 2005
23. Kalyagin V.A., T.S.Ovchinnikova Entsiklopediya metodov psixologo-pedagogicheskoy diagnostiki lits s narusheniyami rechi» Praktikum: Posobiy dlya studentov, pedagogov, logopedov i psixologov. - SPb.: KARO, 2008

24. Kornev A.N, Osnov logopatologii detskogo vozrasta: klinicheskie ipsixologicheskie aspekt tekst.- M.: Rech, 2006
25. Levchenko I.Yu. Patopsixologiya: teoriya i praktike: - M.: Izdatelskiy tsentr AKADEMIYa, 2000
26. Logopediya. /Pod red. L.S. Volkovoy, S.N. SHaxovskoy. – M.: VLADOS, 1998
27. Luriya A.R. Osnov neyropsixologiya. - M.,1997
28. Mamaychuk I.I. Psixologicheskaya pomoшt detyam s problemami v razvitiu. - SPb. Rech, 2001
29. Mo‘minova L.R., Ayupova M.Yu., Logopediya. – T.: O’qituvchi, 1993
30. Mironova S.A.Razvitie rechi doshkolnikov na logopedicheskix zanyatiyax.- M., Prosveschenie, 1991
31. Nastolnaya kniga pedagoga – defektologa. Yepifantseva T.B i drugiy. - F.: Rostov na DONU, 2007
32. Nemov R.S. Psixologiya: V 3kn., M.: 1995
33. Nemov R.S. Psixologiya: Uchebnik dlya stud. Vssh. Ped. Ucheb. Zavedeniy: V 3 kn. – 4 izd. – M.: Gumanit. Izd. TSentr Vlados, 2000. – kn. 1: Obщie osnov psixologii
34. Osina I.N. Vzaimosvyaz temperamenta i vnimaniya u detey doshkolnogo vozrasta // Doshkolnoe vospitanie. – M., 1997
35. Osipova A.A., Malashinskaya L.I. Diagnostika i korreksiya vnimaniya. Programma dlya detey i pedagogov. Prakticheskiy rekomendatsii roditelyam i pedagogam. - M.: TS Sfera, 2003
36. Psixokorreksionnaya i razvivayushchaia rabota s detmi./ Pod red. I.V. Dubrovinoy. - M.: AKADEMIY, 1998
37. Putlyaeva L. Vospitanie vnimaniya // Doshkolnoe vospitanie.- M., 2005
38. Pilaeva N.M., Axutina T.V. SHkola vnimaniya. Metodika razvitiya i korreksiya vnimaniya u detey 5-7 let. Metodicheskoe posobie.- M.: INTOR, 1997
39. Po‘latova P., Amirsaidova SH.M, Z.Mamarajabova va boshqalar. Maxsus pedagogika. - T.: “O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati”, 2014

40. Rutman E.M. Issledovanie razvitiya vnimaniya v ontogeneze.// Vopros psixologii. – 1990
41. Rukodotsvo prakticheskogo psixologa: Gotovnost k shkole: Razvivayushie programm. Metodicheskoe posobie. Pod. Red. I.V.Dubrovinoy. – 5 izd. – M.: AKADEMIYa, 1999
42. Spetsialnaya psixologiya pod red. Lubovskogo V. - M.: 2005
43. Stamov V. Printsip logopedicheskoy rabot i yeyo organizatsiya v detskix sadax dlya zaikayushchixya i dlya detey s nedorazvitiem rechi. - M.: Prosveshenie, 1999
44. Suvorov N.F., Tairov O.P. Psixofiziologicheskie mehanizmi izbiratelnogo vnimaniya. — L., 1985.
45. Troshin O.V, Julina Ye.V. Logopsixologiya. Uchebnoe posobie. –M.: TTS Sfera, 2005
46. Tushkanova O.I. Razvitie vnimaniya. – V., 1995
47. Usanova O.N. Garkusha Ya.F. Osobennosti proiznosheniya detey s motorniy alaliey - M., 1995
48. Ulenkova U.V. Osobennosti ustoychivosti i kontsentratsii proizvolnogo vnimaniya u umstvenno otstalx uchaushchixya mladshix klassov.// Defektologiya. 1993
49. Uruntaeva G.A., Afonkina Ye.A. Praktikum po doshkolnoy psixologii: Posobie dlya studentov vsshix i srednih pedagogicheskix uchebnix zavedeniy. - M.: Akademii. – 1998
50. Usanova O.I., Garkusha Ye.F. Osobennosti proizvolnogo vnimaniya u detey s motornoj alaliey.// Pod red. Belyakovoy L.I. - M.: 1982
51. CHistyakova M.I. Psixogimnastika. – M., 1990
52. SHipilova Ye.V. - Rostov n/Donu: Feniks, 2007.
53. SHaroxina V.L. Korrektsionno – razvivayushie zanyatiya v strashey gruppe. – M.: Knigolyub, 2004
54. Xrestomatiya po logopedii /pod red. L.S.Volkovoy, V.I.Seliverstova. – M.: tom №1, tom №2 1997.

55. Xudenko E.D. Kak nauchit rebyonka dumat i govorit. - M.: Prosveschenie, 1993
56. Filicheva T.G., Chevelyova F.V. Osnov logopedii - M., 1991
57. Farobiy. Fozil shahar odamlari. -T.: Meros, 1990
58. Fomicheva M.F. Vospitanie u detey pravilnogo proiznosheniya. - M.: Prosveschenie, 1989
59. Elkonin D.B. Psixologiya igr. - M.: "Prosveschenie" 1999
60. [http://www.gov.uz/Nizomiy nomidagi TDPU sayti.](http://www.gov.uz/Nizomiy nomidagi TDPU sayti)
61. <http://www.pedagog.uz/Pedagogika muassalari portali>
62. [www.ziyonet.ru](http://www.ziyonet.ru)
63. [www.referatlar.uz](http://www.referatlar.uz)